

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘zbek filologiyasi yo‘nalishi
448-guruh bitiruvchisi Sheraliyeva
Muhabbat Murodjon qizining

“Jadid publitsistikasining taraqqiyot
bosqichlari” mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: A.Sabirdinov,
filologiya fanlari doktori

Farg‘ona – 2013

Bitiruv-malakaviy ishi kafedraning 2013 yil
..... - yig`ilishida muhokama qilingan va
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A.Sabirdinov

Taqrizchi:

T.Ro`ziboyev,

FarPI qoshidagi 3-akademik

litsey o`qituvchisi

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. Jadid publitsistikasining yuzaga kelish tarixi	
1.1. Jadid publitsistikasida matbuotning o‘rni.....	6
1.2. Jadidlar matbuotining taraqqiyot bosqichlari.....	11
II BOB. Jadid publitsistikasining janr xususiyatlari.	
2.1. Felyeton va xat publitsistikasi.....	16
2.2. Ocherk, publisistik maqolalar.....	22
III BOB. Jadid publitsistikasining mavzu rang-barangligi.	
3.1. Davr muammolari talqini.....	29
3.2. Jadidlar publitsistikasi va badiiy adabiyot.....	38
XULOSA.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston mustaqilligi o‘zbek adiblari oldiga yangidan-yangi vazifalar qo‘ydi. Ayniqsa, badiiy publitsistika yo‘nalishida asarlar yozayotgan ijodkorlarning so‘zi millatning ijtimoiy-siyosiy ongini, ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shu xususda fikr yuritib yozadi: “Barchamizga ayonki, XXI asr intellektual salohiyat, tafakkur va ma‘naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi-yangi ufqlar ochish bilan birga, biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o‘ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag‘rikenglikka da‘vat etishga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”¹. Shu ma‘noda yozuvchining publitsistik ijodini, “haroratli so‘zi”ni o‘rganishga zarurat bor. Zero, har qanday davr yoki millat madaniy hayotida publitsistikaga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshadi. Shu munosabat bilan publitsistika barcha ma‘naviy yo‘nalishlarda, jumladan, adabiyot sohasida ham deyarli barcha adabiy janrlar tarkibiga kirib boradi. Ayni chog‘da o‘zining ichki spetsifik xususiyatlarini mukammallashtirish orqali ijtimoiy hayotdagi yetakchi targ‘ibot usuliga aylanadi. O‘zbek badiiy publitsistikasi tarixida bu jihat xalqimiz hayotida ro‘y bergan ikki ijtimoiy bosqichda yaqqol namoyon bo‘lganligini hisobga olsak, bulardan eng muhim birinchi, dastlabki bosqichi XIX asrning so‘nggi choragida boshlanib, XX asrning 20-yillari oxiriga qadar davom etgan milliy uyg‘onish harakati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jadidlar publitsistikasidir. Shunday ekan, milliy uyg‘onish davrida xalqning o‘zligini tanish, milliylikka chaqirish asnosida vujudga kelgan jadidlar publitsistikasini o‘rganish, ularning publitsistik ijodini tahlil qilish va baholash, taraqqiyot bosqichlari hamda tadrijini asoslab berish bugungi adabiyotshunoslik zimmasidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

¹ Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т; Ўзбекистон, 2009. –Б.11-12.

Jadidlar publitsistikasida janrlar xilma-xilligi va rivojini o'rganish mobaynida o'zbek jurnalistikasining tarixiga bevosita nazar tashlash va mazkur jarayonlar tadrijida dastlabki janrlarning yaratilishi va bugungi kunga qadar qanday o'zgarishlarga yuz tutganligi aniqlash mavzuni yanada yorqinlashtiradi. Mavzuning keng qamrovda yoritilishi jurnalistikaning kelib chiqishi va taraqqiyot jarayonlarini ko'rsatib beradi.

Ta'kidlash joizki, ayni damda gazeta va jurnallarda janrlar xilma-xilligini kuzatish amri mahol bo'lib bormoqda. Shu qatorda, publitsistik janrlarning ayrimlariga murojaat umuman yo'qolib bormoqda. Aynan shu muammolarni hisobga olgan holda, publitsistikaning paydo bo'lishi va undagi janrlar taraqqiyotini sinchiklab o'rganish kam qo'llanilayotgan janrlarga yana qaytadan murojaat etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mavzuning o'rganilish dolzarbligi yana shundan iboratki, jadidlar publitsistikasini tadqiq etish bevosita jurnalistikaning kelib chiqishini o'rganish bilan birgalikda, publitsistikaga yondash holda, bir-biridan quvvat olib shakllana borayotgan jadid adabiyotining, o'zbek adabiyotining vujudga kelishini ham o'rganishni talab etadi va bu ikki chashmaning o'zaro qorishiq bo'lganligini ko'rsatib beradi.

Ko'rinib turibdiki, birgina mavzu doirasida bir necha muammolar qamrab olinmoqda. Shular qatorida yanada mukammallashtirib shuni aytish mumkinki, publitsistikani, undagi janrlar taraqqiyotini o'rganish birgina davr mobaynida so'z boyligimizning qay darajada o'sib borganligi ko'rish, buni o'sha davr gazeta va jurnallaridan o'qib, qo'llanilgan so'zlarning ma'no-mazmunini o'rganib, kuzatish mumkin.

Shunisi e'tiborliki, o'sha davr publitsistikasi bizga tarixni, bu jarayonda o'sha davr siyosati, madaniyati, ma'rifati, diniy va dunyoviy qarashlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Shunday ekan, jadidlar publitsistikasini keng miqyosda tadqiq etish va uni mukammal o'rganish bugungi kunning dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan muammolaridan, kerak bo'lsa, muhim vazifalaridan biridir.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsadi. Asosiy maqsad jadidlar publitsistikasining yuzaga kelishi, rivojlanish tamoyillarini belgilash hamda mazkur publitsistikaning badiiy adabiyotga, shu qatorda, xalq milliy tafakkurining shakllanishi, millatning o'zligini anglashga bo'lgan ta'sirini o'rganish, publitsistikaning badiiy qurol tarzida ijtimoiy, adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rnini ko'rsatib berishdir.

Bitiruv-malakaviy ishining vazifalari.

Ishning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- jadidlar publitsistikasining kelib chiqishi va rivojlanishini ko'rsatib berish;
- jadidlar matbuotining adabiyotga ta'sirini ifodalash;
- jadidlar publitsistikasida qo'llanilgan janrlarning xilma-xilligi, mavzu ko'lamini va tadrijini tadqiq etish;
- jadidlar publitsistik maqolalari asosida janrlar taraqqiyotini ochib berish;
- o'zbek badiiy publitsistikasi tarixini o'rganish.

Muammoning o'rganilish darajasi va ilmiy yangiligi. Jadidlar davri adabiyoti, publitsistikasi, milliy uyg'onish davrida ma'rifat, ma'naviyat masalalari, publitsistik janrlarning xilma-xilligi va taraqqiyoti muammosi jahon, rus va o'zbek adabiyotshunosligida etik, estetik va jurnalistik aspektlarda o'rganilgan.

Ma'lumki, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodining muayyan qismini publitsistika tashkil etadi. Mazkur davrning madaniy, ma'rifiy, adabiy hodisalari adabiyotshunoslar tomonidan jiddiy o'rganildi. Mustaqillik davrida alohida olingan adabiy siymolarning adabiy-estetik qarashlari, publitsistik va muharrirlik faoliyati yuzasidan dissertatsiyalar himoya qilindi².

² Султонов У. Чўлпоннинг адабий-эстетик қарашлари: фил.фанлари номзоди ... дис.автореф. – Т, 1995. Саитдов Х. Ма'мудхўжа Бехбудийнинг публицистик ва мухаррирлик фаолияти: филол.фанлари номзоди ... дис. – Т, 1998. Йўлдошбекова С.С.Чўлпоннинг публицистик ва мухаррирлик фаолияти: филол.фанлари номзоди ... дис.автореф. – Т, 2002. Тошмухаммедова Л.Абдулла Қодирийнинг адабий-эстетик қарашлари: филол.фанлари номзоди ... дис.автореф. – Т, 2005.

Adabiyotshunoslikda o'zbek publisistikasining shakllanishi va takomil tamoyillari, nazariyasi, mavzu ko'lam, uslubiy xususiyatlari, janrlari kabi masalalar umumnazariy va individual aspektda o'rganilgan³.

Ko'rinadiki, o'zbek adabiyotshunosligida publitsistika masalasi biror bir davr, adabiy muhit, ijtimoiy hodisalar asosida o'rganilgan. Ammo bularni to'la e'tirof etgan holda aytish lozimki, o'zbek publitsitikasining tashkil etilishida tamal toshini qo'ygan jadidlarning asarlari tarkibida badiiy-publitsistik vazifa bajarishga qaratilgan muhim omillar, shuningdek, publitsistik janrlarning tadriji hamda bugungi kunga qadar qanday o'zgarishlarga yuz tutib, yangi janrlar tashkil etilish jarayonlari tadqiq etilib, o'rganilgan emas. Vaholanki, milliy uyg'onish davri adabiyoti, jadidlar ijodining asosini publitsistika tashkil etgani holda bugungi kunga qadar bir qator o'zgarishlarga yuz tutgani hamda g'oyaviy, uslubiy rang-baranglik jihatidan yanada takomillashib, milliy uyg'onish davrida boshlangan badiiy-publitsistik inersiya bugungi kunga kelib yangi bosqichga ko'tarilgani, bu jarayonni o'rganish va tadqiq etish g'oyat dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.

Mazkur ishning nazariy umumlashmalari, ya'ni jadidlar publitsistikasi, matbuoti taraqqiyotining o'rganilishi hamda o'zbek adabiyoti rivojiga ta'sirining tadqiq etilishi borasidagi jamlanmalar nafaqat jadidlar davri publitsistikasi, balki o'zbek badiiy publitsistikasi hamda adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini belgilashda asos bo'ladigan badiiy-estetik qonuniyatlarni ochishda ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

³ Қаранг: Тоғаев О. Ўзбек бадий публицистикаси (назария ва маҳорат масалалари). – Т.: Фан, 1973.
Худойкулов М. Ўзбек ҳажвий публицистикасининг шаклланиш тамойиллари (XIX аср охири – XX аср ўрталари ўзбек матбуот материаллари асосида): филол.фанлари доктори ... дис. – Т, 2001.

I BOB. JADID PUBLITSISTIKASINING YUZAGA KELISH TARIXI

1.1. Jadid publitsistikasida matbuotning o‘rni

Publitsistikaning eng muhim vazifasi zamonning dolzarb muammolarini kun tartibiga qo‘yish, jamoatchilik fikrini uyg‘otish, qo‘zg‘atish, shakllantirish, bu orqali omma ongiga ta‘sir ko‘rsatishdan iboratdir. Bu borada matbuot eng qulay vosita va muhim quroldir. Ayni shu jihatlarni e‘tiborga oladigan bo‘lsak, jadidlar publitsistikasi ham shu jarayonda tashkil topdi, deb ayta olamiz.

Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilganidan so‘ng uning koloniyaga aylantirilishi, Buxoro amirligi va Xiva xonligining vassal darajasiga tushishi oqibatida mahalliy xalqning moddiy va ma‘naviy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatilgan chog‘da aholini ma‘rifatli qilish, jaholat “botqog‘i”dan olib chiqish, uning milliy ongini oshirib, unga o‘zligini, o‘z ahvolini anglatish lozim edi. Bu tarixiy vazifa “jadidlar” deb atalgan siyosiy oqim vakillari zimmasiga tushdi. Jadidlar ijtimoiy kelib chiqishlariga ko‘ra, turli toifalarga mansub bo‘lib, ularni yagona g‘oya – milliy istiqlol g‘oyasi birlashtirgan edi. Bu yo‘lda maorif singari matbuotning ham xizmati katta bo‘lishi tabiiyligini ular yaxshi tushunishgan. Mana shu ijtimoiy ehtiyoj, talab Turkistonda milliy matbuot yuzaga kelishining ijtimoiy omili bo‘ldi.

Aytish mumkinki, jadidlar she‘riyatda ham, dramaturgiyada ham, nasrda ham, publitsistikada ham birday muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan. Publitsistikaning ilk namunalari o‘zbek matbuotida 1900-yildan keyingina paydo bo‘lgan edi. Lekin bu sohadagi tajribalarning g‘oyat kambag‘alligiga qaramay, jadid publitsistikasi 20-yillarning boshida o‘z rivojining eng yuksak cho‘qqilariga ko‘tarildi. Bu davriy publitsistikaning o‘sishi, birinchi navbatda, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon nomlari bilan bog‘liq. Ular vaqtli matbuotda o‘nlab maqolalar e‘lon qildilar va ularda benihoya o‘tkir ehtiros bilan, so‘nmas bir jo‘shqinlik bilan millat hayotining eng muhim masalalarini ko‘tarib chiqdilar.

Jadidlar istilochilar va ularning mahalliy malaylari tomonidan toptalgan Turkiston o'lkasini obod va taraqqiy etgan yurtga aylantirish, xalqni jaholat, ilmsizlik va xurofot botqog'idan qutqarib, ilm-ma'rifatli etish orzusida keng faoliyat olib bordilar. Zero, ular bunday ezgu niyatlarga erishishda matbuot qudratli ta'sir vositalaridan biri ekanligini yaxshi anglashgan.

XX asrning ufqida Turkistonda o'zbek milliy vaqtli matbuoti tug'ildi va tez sur'atlar bilan rivojlana bordi.

Turkiston jadidlarining yetakchi namoyandalari: Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniyilar demokratik yo'nalishdagi o'zbek matbuotini shakllantirishga katta hissa qo'shdilar. Jadidlar milliy nashrlar faoliyatini tashkil etish va yo'lga qo'yishda mahalliy rus matbuoti hamda Rossiyaning turli hududlarida tatar tilida nashr qilingan gazetalarning, xususan, Ismoil Gaspirali muharrirligida chiqqan "Tarjimon" gazetasining ish tajribasiga tayandilar.

Matbuot jadidchilik g'oyalarining tarqalishi va milliy uyg'onish harakatining vujudga kelishida g'oyat katta ahamiyatga molik bo'ldi. 1905-yildan keyin chiqqan boshlagan jadid gazetalarning qaldirg'ochi "Taraqqiy" edi. Bu gazeta 1905-yildan e'tiboran chiqqan boshlagan, ammo mushtariysizligi orqasidan to'xtagan Ivan Geyyerning gazetasi o'rniga haftada ikki marta chop etilgan. Ulamolarning xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborini tushirishga harakat qilgan, din, millat, vatan nomidan aytilgan fikrlari bilan yoshlarni milliy madaniyat uchun kurashga chaqirgan bu gazeta tez fursatda shuhrat topdi va shu sababdan tez orada yopildi.

1912-yildan boshlab jadidchilik harakati butun o'lka bo'ylab qanot yozadi; xalqni ma'rifatli va madaniyatli qilish orqali, milliy ozodlikka olib chiqish masalasi esa Samarqand, Buxoro, Qo'qon kabi shaharlarni ham o'zining ta'sir doirasiga tortadi. 1913-yildan boshlab bu shaharlarda "Samarqand", "Turon", "Buxoroi sharif", "Sadoi Farg'ona", Toshkentda esa "Sadoi Turkiston" gazetalari chiqqan boshlaydi. Behbudiy asos solgan "Samarqand" gazetasi, masalan, mahalliy savdogarlarni tijorat ilmini bilmaslikda, rus-tuzem maktablarida o'qigan musulmonlarni esa millat qayg'usidan uzoqlikda ayblab, mushtariylarni boyish

ilmini egallashga chaqiradi. U, umuman, xalqning chor amaldorlari “poshnasi tagida” qolganligining sabablarini ilmsizlikdan, iste’dodsizlikdan ko’rib, yozadi: “Biz Rusiya tabaasi va grajdanimiz; ruslar ila baravar huquq, madaniyat va mulkiyaga molikmiz. Ammo beiste’dodligimizga taassuf qilurmiz. Bank va savodxonalar, sud mahkamalari, notarius, temir yo’l, xullas, zamonning paydo qilgan har bir yangi nimarsalariga muhtoj bo’lsak, avvalgi qadamda ruscha bilmoq lozim kelur...”

Turkiston jadidlari Rusiya va Qrim tatarlari bilan yaqin aloqa o’rnatib, o’zlarining ma’rifiy dasturlarini matbuot orqali amalga oshirishga katta kuch sarfladilar. Ularning sa’y-harakatlari bilan shu yillari publitsistika ayniqsa o’sdi. Birgina Behbudiyning o’zi turli mavzulardagi 300 dan ziyod maqola e’lon qildi. Mirmuhsin Shermuhamedov esa 1914-yilning o’zidayoq matbuotda yuzga yaqin maqola bilan chiqdi. Agar bu ro’yxatga Munavvarqori, Avloniy, Hamza, Cho’lpon va boshqa jadid jurnalistlarining nomlarini ham kiritsak, 10-yillarda o’zbek publitsistikasi shakllanibgina qolmay, balki jamiyatning ijtimoiy hayotiga katta ta’sir o’tkazgani ham ravshanlashadi.

Jadidlar harakati davomida ularning o’z matbuoti shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905—06-yillarda "Taraqqiy" (muharriri — Ismoil Obidiy), "Xurshid" (muharriri — Munavvarqori), 1907—08-yillarda "Shuhrat" (muharriri — A.Avloniy), "Osiyo" (muharriri — Ahmadjon Bektemirov), "Tujjor" (muharriri — Saidkarimboy Saidazimboy o’g’li), Buxoroda 1912-yilda "Buxoroyi sharif" (muharriri — Mirzo Jalol Yusufzoda), "Turon" (muharriri — G’iyos maxsum Husayniy), Samarqandda 1913-yilda "Samarqand" (muharriri — M. Behbudi), Toshkentda "Sadoyi Turkiston" (muharriri — Ubaydulla Xo’jayev), Qo’qonda "Sadoyi Farg’ona" (muharriri — Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913— 15-yillarda "Oyina" (muharriri — M. Behbudi), Toshkentda 1915-yil "Al-isloh" (muharriri — Abdurahmon Sodiq o’g’li) jurnalarini nashr qilishdi. Shuningdek, 1917—18-yillarda Toshkentda "Najot" (muharriri — Munavvarqori), "Kengash" (muharrirlari — Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), "Turon" (muharrirlari — M. Afandizoda, A. Avloniy), "Ulug’ Turkiston" (muharriri —

Kabir Bakirov), "Sho`roi Islom" (muharriri — Abdulla Battol), "Turk so`zi" (muharriri — Temirbek Xudoyorxonov), "Turk eli" (tahririyati), Samarqandda "Hurriyat" (muharrirlari — Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat), Qo`qonda "Tirik so`z" (muharriri — Obidjon Mahmudov), "El bayrog`i" (muharriri — Bo`lat Soliyev) gazetalari va "Kengash" (muharriri — Hamza), "Yurt" (muharriri — Ashurali Zohiriy) jurnallari chop qilindi. Matbuot millat dilidagi gaplarni o`z sahifalariga ko`chirish bilan kifoyalanmay, qanday ishlarni birinchi navbatda amalga oshirish masalasini o`rtaga qo`ydi. 1909-yilda Toshkent yosh ziyolilari tomonidan "Jamiyati xayriya" tashkil etildi. Mahalliy yoshlardan davlat mahkamalarida, sanoat, tijorat sohasida ishlaydigan mutaxassislar tayyorlash, kambag`al musulmonlarga madaniy-ma`naviy yordam ko`rsatish masalasi qo`yildi. Bu millatning boshqa xalqlar ichiga singib ketmasligi yo`lida ko`rilgan tadbirlar edi.

Jadid matbuoti o`z vakillarining fikrlarini e`lon qilar ekan, xalqni "har vaqt g`aflat uyqusidan uyg`otuvchi" "millat ongining ochqichi" ekanligini namoyon etish bilan birga, Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda "Erk", "Turon", "O`qituvchilar jamiyati" kabi uyushmalar paydo bo`ldi. Munavvarqori aytganidek, "Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haq-huquqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi".

Illy tarzda, jadidlar publisistikasida matbuot 1906—16-yillarda o`zining asosiy yo`lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o`zligini anglab, uyushishga chaqirdi. O`lka moddiy va ma`naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho`lpon she`r va maqolalarida mustamlakachilarning asl qiyofalarini ochib tashladi. Mashhur advokat U.Xo`jayev oliy o`quv yurtini tashkil etish, soliqlarni tartibga solish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e`tibor berish masalasini bayon qildi. Lev Tolstoy bilan fikrlashish chog`ida mashhur yozuvchini yon berishga majbur etgan U. Xo`jayev

chor hukumati ma'murlarining poraxo'rliги va zolimligini fosh etib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga erishdi. Musulmon aholisiga amaliy tarzda yordam berib, mavjud hokimiyat qonun-qoidalarini tushuntira bordi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jadid publitsistikasining rivojlanishi va xalqqa yetib borishida matbuotning o'rne va ahamiyati katta bo'ldi. Jadidlarning ozodlikni, Vatanni jondan ortiq sevuvchi, ilg'or, tushungan, har tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fuqarosini tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan publitsistik maqolalari matbuot nashrlari orqali xalqqa etkazildi va bu jarayon publitsistlarning qalami o'tkirlashishi va davr muhitini yoritishlarida katta imkoniyat bo'ldi.

1.2. Jadidlar matbuotining taraqqiyot bosqichlari

Jadid matbuotchiligi 1905-yildan keyin ma'lum erkinliklar samarasi sifatida maydonga keldi. Biroq unda:

- 1) Turkistondagi mavjud o'zbekcha nashr – “Turkiston viloyatining gazetasi”;
- 2) Usmonli turk, Kavkaz, Volgabo'yi matbuotchiligining ham roli katta bo'ldi⁴.

O'zbekistonda chinakam milliy matbuotning yuzaga kelishi “Taraqqiy” gazetasi bilan ham bog'liq. Bu jadidlar chiqargan ilk gazeta edi.

“Taraqqiy” dastlabki sonlaridanoq mahalliy aholiga Rossiya imperiyasining mohiyatini, milliy zulm, mustabidlik nima ekanligini, erk, ozodlik qanchalik buyuk ne'matligini anglatishga harakat qiladi. Gazeta muharriri Ismoil Obidiy bilimdon va aqlli inson bo'lganidan tahririyat ishini puxtalik bilan boshqarib bordi. Mustabidlarni “hurkitib yubormaslik” uchun gazetaning oxirgi – to'rtinchi sahifasida o'z maslagini pardaliroq qilib bildiradi (an'anaga ko'ra, “Maqsad va

⁴ Қосимов Б.Миллий уйғониш. Т., Маънавият, 2002, 36-бет.

maslagimiz” sarlavhali maqola berilishi kerak edi. “Taraqqiy” bunday sarlavha qo‘ymaydi).

“Gazetamiz “Taraqqiy” nominda o‘lub, deb yoziladi tahririyat maqolasida. – bora-bora jismi ham ismig‘a muvofiq o‘lub millatimizni “keyin” qolmog‘ig‘a, jaholati va g‘aflati oliyda o‘lub boshqa millatlardan kam darajada qolmog‘ig‘a aslo rozi emasdirmiz... binon alayha, gazetamizning najotimizga, dunyo va oxiratda mas‘ud o‘lmoqimizga yolg‘uz ilm bobidur demak birinchi vazifasidir”⁵. Gazeta “zamonamiz foyda va istifoda zamondir”, “millat manfaatiga xizmat etmak zamon, tortkan mehnat, ko‘rgan zahmatlaridan qutuladurg‘on zamon bu zamon. Din va dunyomiz uchun hayrat qilub ibrat oladurg‘on zamon – bu zamon. Har kim o‘z hissasini olib turg‘on muddatda og‘iz ochub qoladurg‘on zamon emas”ligini ham ustalik bilan ishora qilib o‘tadi.

Jadid matbuoti 1905-yil Manifestidan ilhom va madad olib, qisqa muddatda katta bosqichni bosib o‘tdi va turkiy dunyoning e‘tiborli davrlari nazariga tushdiyu ularni ilk martaba jamlab fikr bildirgan Cho‘lpon⁶ bo‘ldi. Abdulla Avloniy “Burungi o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” maqolasida 1905-1917-yillar oralig‘ida o‘lkada o‘zbek tilida 22 gazeta, 8 jurnal nashr etilganini xabar beradi⁷. 1927-yilda “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)” tadqiqotini chop ettirgan Ziyo Saidning aniqlashicha, o‘tgan oraliq davrda 45 gazeta, 36 jurnal dunyo yuzini ko‘rgan⁸. Bular haqida matbuotshunoslik bilan bog‘liq ishlarda ozko‘p ma‘lumotlar berilgan.

1906-yilning 27-iyunida dunyo ko‘rgan “Taraqqiy” (muharriri – Ismoil Obidiy) ilk o‘zbek milliy gazetasi sifatida tarixga kirdi. U nashr etilgan kun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori bilan Matbuot kuni deb e‘lon qilingan. “Yilning eng suyib o‘qiydurg‘on” (Avloniy) bu gazetasi o‘z davrida juda katta shuhrat qozongan. Ismoil Obidiyni “Ismoil Taraqqiy” deb ataganlar. I.Gasprinskiy maxsus “Taraqqiy” nomli maqola yozib, toshkentlik

⁵ “Тараққий”.1906, 1-сон.

⁶ Қаранг: Чўлпон. Туркистонда матбуот. “Жамият ва бошқарув” ж., 1998., 2-сон. Нашрга тайёрловчи Т.Тоғаев.

⁷ Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи. Нашрга тайёрловчи Ш.Ризаев. Китобда: Миллий уйғониш. – Т., “Университет”, 1993 й., 115-123-бетлар.

⁸ Зиё Саид. Танланган асарлар. – Т., 1974, 13–116-бетлар.

hamkasabalarini tabriklagan, “lisoniy Turkiston taraflarida maqbul turk shevasinda” ekanligidan, “maslaki taraqqiyparvar”ligidan xursandlik izhor etgan, o’lkada shunday gazetaga ko’pdan ehtiyoj bo’lganligini ta’kidlagan edi⁹. “Taraqqiy” dan mashhur Abdulla To’qay ham xabardor edi¹⁰. Gazetani tashkil qilishdan materiallar bilan ta’minlashgacha Munavvarqori va Abdulla Avloniylarning roli katta bo’lgan¹¹. 20 soni chiqqach, hukumat tomonidan to’xtatilgan.

Munavvarqorining “Xurshid” gazetasi (1906-yilning 6-sentabridan chiqib, 10-sonida yopilgan) Fansurullobek Xudoyorxonov, Abdulla Avloniy, aka-uka komilbek va Karimbek Norbekovlar, Muhammadxon Podshoxo’jaev kabi yosh taraqqiyparvar kuchlarni o’z atrofiga jamladi. Siyosiy masalalar bilan faol shug’ullandi. Gazetaning 6-sonida bosilgan Behbudiyning “Xayrul umuri avsatuhu” (“Ishlarning yaxshisi o’rtachasidir”) maqolasida Rusiyaga Ovruponing qirqqa yaqin mamlakatiga xos umumdemokratik mezonlar nuqtai nazaridan baho beriladi, chor hukumatining “idorai mustaqila” – “samoderjavie” idora tizimi tanqid ostiga olinadi. Mavjud partiyalarning dasturlariga turkistonliklar ko’zi bilan qaraladi. Chor hukumatining mustabid siyosati, xususan, vaqflarning tortib olinishi, madrasalarning xarob qilinishi, rus mujiklarini ko’chirib keltirish siyosati, mahalliy xalqning armanilar qo’liga o’tib borishi millat fojiasi sifatida baholanadi. Partiyalar haqida gap ketganida, sotsial demokratiyaning har ikki qanoti (sotsial-demokrat, sotsial-revolyusioner) ham rad etiladi. “Murodi ... xayoliy”, “bu toifaga qo’shulmoq, biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik”, deb ko’rsatiladi. Muallif “Rusiya musulmonlari ittifoqi” ni alohida bir “partiyayi maxsusa” hisoblab, kadetlar dasturini unga muvofiq topadi¹². “Tarjimon” gazetasi “Bizim matbuot” nomli maqolasida “Xurshid”ning go’zal intixob etilgan “mundarija”siga, “ochiq turkcha” tiliga mamnunlik bilan to’xtalgani, Munavvarqorini samimiy tabriklab, “ishning davomini” umid qilib qolgani bejiz emas edi.

⁹ Қаранг: “Таржимон” г., 1906 й., 69-сон.

¹⁰ Қаранг: Абдулла Тўқай. Асарлар, 4-томлик, 3-том. Қозон, 1976, 49, 391-бетлар.

¹¹ Қаранг: Қосимов Б. Адабиёт ва инқилобий ҳаракат. “Шарқ юлдузи” ж.. 1984 й., 1-сон

¹² “Таржимон” г., 1906 й., 22 сентябрь, 107-сон.

Shunisi borki, matbuotning qudratli kuchga egaligiga qattiq ishonch hosil qilgan mahalliy ziyolilarni endi gazeta chiqarishdan to'xtatib bo'lmadi: milliy uyg'onish sodir bo'lgandi.

Bu davrda yana bir qator kunnomalar: "Turkiston viloyatining gazetasi", "Xurshid", "Shuhrat" "Sadoi Turkiston" (Toshkent, 1914-15), "Samarqand" (1913), "Sadoi Farg'ona" (1914) gazetolari hamda "Oyna" (Samarqand. 1913-15) jurnalining saviyasi, omma ongiga ta'siri jihatidan jadidlar matbuoti tarixidagi eng ibratli nashrlardan deb hisoblash mumkin¹³.

Aytish mumkinki, gazetalar kundan - kunga aholini o'ziga jalb qila berdi. Butun Turkistonda shuhrat chiqardi va Turkistonning har burchagidan yuzlarcha mushtariy jalb qildi. O'qug'uvchilarning dumog'larida boshqa bir fikr, boshqa bir o'ylov paydo bo'la bordi...

Biroq, jadid gazetalarining faoliyati mashaqqatli kechadi. Chor senzurasini ularni qattiq iskanjaga oldi. Toshkentda chiqqan "Taraqqiy", "Xurshid" (1906), "Shuhrat" (1907), "Osiyo" (1908) gazetolari "nomatlub" yo'nalishi uchun Turkistondagi podsho ma'muriyati tomonidan yopib qo'yildi. Boshqa nashrlarning tez-tez moliyaviy tanglikka giriftor bo'lishi ham ular faoliyatining to'xtashiga sabab bo'ldi. Ma'rifatchilar tomonidan asos solingan o'zbek matbuoti o'z yo'lidagi jiddiy to'siq va g'ovlarga qaramay, milliy ong, til, adabiyot va jurnalistikani shakllantirishga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Shu tariqa, Turkistonda milliy matbuot chiqishi bilan bog'liq birinchi davr tamom bo'ladi. Bu davrda mahalliy aholi vakillari gazeta chiqarish malakasini egalladilar, matbuotning kuchli mafkuraviy qurol ekaniga, bu borada qat'iy va izchil harakat qilish lozimligiga, matbuotdan milliy mustaqillikka erishish yo'lida samarali foydalanish mumkinligiga qat'iy ishonch hosil qildilar.

1913 yilga kelib jadidlar matbuotining ikkinchi bosqichi boshlangan, deyish mumkin. Mahalliy aholi paydo bo'lgan milliy matbuotini xayrixohlik bilan kutib olgani tufayli 1906-1913 yillar jadidlar matbuoti shakllanish va taraqqiyot yo'liga kirish davri bo'ldi. To'g'ri, bu osonlikcha kechmadi. Ayniqsa, chor senzurasini,

¹³ Ўзбек миллий энциклопедияси, 12-том, 227-бет.

“Oxranka”, mustabid ma’muriyatning tazyiqlari va siquviga duch kelgan milliy matbuot fidoyilari asta-sekin o‘z xaq-huquqlari uchun kurash yo‘llari va malakasini o‘zlashtirdilar. Bunga Mahmudxo‘ja Behbudiyning muharrirlik faoliyati yorqin misol bo‘la oladi. Dastlab mahalliy aholidan chiqqan biron-bir ziyoli muharrirlik uchun ruxsat so‘rashga jur‘at etolmagan bo‘lsa-da, bu davrga kelib Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Saidkarim Saidazimboy o‘g‘lilar safiga Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydulla Asadullaxo‘jaev, Obidjon Mahmudov, Abdurahmon Sodiq o‘g‘li, Astarxon Pahlavon o‘g‘lilar qo‘shildilar.

Jadidlar matbuotining birinchi bosqichida gazetalar asosan Toshkent va Buxoroda chiqqan bo‘lsa, ikkinchi bosqichga kelib Samarqand va Farg‘onada ham matbuot yuzaga keldi. Demak, bu davrga kelib gazeta chiqarishning jug‘rofiyasi kengaydi. Ikkinchi bosqichda gazetalar bilan birga jurnallar ham paydo bo‘ldi. Bu esa, XX asrning 10-yillaridan so‘ng o‘zbek milliy matbuoti son jihatidagina emas, sifat jihatidan o‘sib borganini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash joizki, 1905-1917 yillar oralig‘i jadidlar publitsistikasi matbuot sahifalarida o‘zida namoyon qildi va bu bizga o‘sha bo‘ronli, suronli davrning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy ahvoli qay darajada bo‘lganligi, davr adabiy harakatchiligining qanday mavqeda turganligini va qanday sharoitda rivojlanganligini, shakllanganligini, adabiyotga ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik, ozodlik g‘oyalarining qay tarzda kirib kelganligini va qanday rivojlanganligini o‘rganishda juda katta materiallar berishi shak-shubhasizdir.

Agar tadqiq qilinayotgan jadidlar matbuoti bo‘lmaganda (“Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat” yoki “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kunnomalari yoki “Oyina”, “Al-izoh”, “Al-isloh” oynomalari bo‘lsin), o‘sha davr muhiti, publitsistikasi, undagi janrlar va ularning taraqqiyotiga baho berish birmuncha murakkablashardi.

Xulosa tariqasida yana shuni eslatib o‘tish lozimki, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Osiyo” kabi kunnomalar turli sabablarga ko‘ra (ba’zilari chor hukumati tomonidan, ba’zilari moddiy yetishmovchilik natijasida, ba’zilari xalq orasida obro‘ topolmaganligi

sababli) o'z faoliyatlarini to'xtatgan bo'lishlariga qaramay, ularda ma'naviy hayotda ma'rifatparvarlik g'oyalarini tashviq qilishda, jadidlar publitsistikasining taraqqiyotida ijobiy ahamiyatga ega bo'lganligi haqiqatdir.

II BOB. JADID PUBLITSISTIKASINING JANR XUSUSIYATLARI.

2.1. Felyetonning janr xususiyati.

Ma'lumki janr – shakl va mazmun jihatdan o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan san'at asari turidir. Publitsistika janrlari ham shakl va mazmun jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga egadir, ular ham xuddi adabiyot va san'atdagi janrlar singari kichikdan kattaga, yagonadan umumiyga, oddiylikdan mukammallikka o'sib boradi. Publitsistikaning badiiy turiga oid janrlar lavha, ocherk, esse, felyeton va pamfletdan iboratdir. Mazkur janrlarda hayot voqealari, muammolari keng tarzda yoritilishi sababli ularda xabardor etish, tahlil qilish bilan birgalikda badiiy tasvir vositalaridan ham keng foydalaniladi hamda ularda obraz va obrazlilik keng qo'llaniladi. Ammo mazkur janrlarda ham obraz va obrazlilik bu janrlarga oid hayot voqealari, ya'ni ularning mavzusi hamda jamoatchilik fikrini uyg'otish uchun chiqariladigan publitsistik xulosalarga xizmat qilishi lozimdir. Shulardan kelib chiqqan holda, jadidlar publitsistikasining yetakchi janrlaridan hisoblangan felyeton, xat, ocherk hamda maqolalar haqida, mazkur janrlarning o'ziga xos xususiyatlari, ulardagi obraz va obrazlilik darajasi va boshqa badiiy publitsistik vositalarning qo'llanilishi, ularda ko'tarilgan davr mavzusi va dolzarbligi xususida to'xtalib o'tish orqali jadidlar publitsistikasida janrlar taraqqiyotini tahlil qilamiz.

Felyeton fransuzcha "Feuilleton" so'zidan olingan bo'lib, varaq degan ma'noni beradi. Boshda gazetaga ilova qilingan varaqni yoxud gazetaning ostki qismida, matbuot termini bilan aytganda, podvalda beriladigan material felyeton deyilganda hozirgidek muayyan janr ko'zda tutilmagan: rang-barang materiallar, suhbatu hisobot, spektakl taqrizi, munaqqid maqolasi, hatto podvalda terilgan adabiy asar - felyeton, deya nomlangan. Hozir ham G'arb matbuotida ko'pincha yirik asarlar felyeton, deb ataladi.

Ayrim eski tadqiqot, o'quv qo'llanmalarida felyeton matbuotning keng tarqalgan janrlaridan biri, degan fikrga duch kelamiz. O'z navbatida, felyeton

matbuotning kam tarqalgan janrlaridan biri, deyilsa to'g'riroq bo'ladi. O'z davrida jadidlar publitsistikasida mazkur janrdan unumli foydalanilgan, o'sha davr nashrlarida felyeton janri uchrab turganligini kuzatish mumkin. Bunda felyeton orqali davr va jamiyat hayotida uchrab turadigan, kuzatilgan, taraqqiyotga to'siq bo'ladigan kamchilik, illatlar hajv, kulgi vositasida keskin tanqid ostiga olingan, fosh qilingan, salbiy holatlarni inkor etish asosida ijtimoiy ideal tasdiqlangan.

Felyetonning asosiy tig'i voqelikdagi turli-tuman nuqson, qusur, negativ holatlarga qaratilgan bo'lib, maqsad bu xato, kamchiliklarni tugatish, barham berishdir. Yuzaki qaraganda, tanqid o'qi ayrim odamlarga yo'naltirilganday tuyulsa-da, asosiy maqsad ayrim kimsalar tashiydigan turli illatlarni yo'qotishdir. Taniqli ukrain adibi Ostap Vishnyaning ish stoli tepasida "mening yuz karra la'natga uchragur do'stlarim" degan yozuv-ro'yxat bo'lib, unda byurokratlar, ko'zbo'yamachilar, xushomadgo'ylar, poraxo'rlar, tovlamachilar, chayqovchilar, tashmachilar, vaysaqilar, takabburlar, ablahlar, ig'vogarlar, chaqimchilar, tekinxo'rlar, davlat mulkini talon-taroj qiluvchilar, landovurlar, aliment to'lamay qochib yuruvchilar va hokazo-hokazolar zikr etilgan ekan. U "Men sho'rpushona mana nimalar haqida 'ylashim, yozishim kerak" deb ko'plab dolzarb mavzu, muammolarni sanab o'rta tashlagan.

Felyeton badiiy-publitsistik janrlar sirasiga kiradi. Janrning qo'shaloq nom bilan yuritilishi, ham badiiyat, ham publitsistika qonun-qoidalari asosida yaratilishi, ularning talablariga qay darajada javob berishiga qarab baholanishini anglatadi.

Felyetonning badiiy xususiyatlari deganda, tiniq manzara, quyma tasvirlar, obraz, timsollar, tipik xarakter va sharoit, syujet chizig'i, pishiq kompozitsiya, adabiy til, xalq tili, rang-barang ijod vositalari anglashiladi. Felyetonning publitsistik xususiyatlari deyilganda, mantiqiy muhokama, ilmiy tushuncha, o'tkir polemik ruh, publitsistik cho'g', achchiq va nordon kulgi, muallif "men"ining faolligi, bayonning, tasvir uslubining, syujet, kompozitsiya, konfliktning o'ziga xosligi, monolog va dialogning mo'lligi va hokazolar tushuniladi. Janr tabiati ilmiy

tushuncha, amallardan foydalanishni ham taqozo etadi, shu ma'noda felyetonni badiiy-ilmiy-publitsistik janr, deb ham atash mumkin.

Felyetonning muhim xususiyatlaridan biri, uning hujjatligi, voqebandligi, haqqoniyligi. Xuddi shu narsa muallifni tasvirda, bayonda, obraz, xarakter yaratishda, syujet, kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanishda bir qadar cheklaydi. Masalan, u personajning tugal portretini chizmasligi mumkin, to'la chizishi balkim shart ham emas, bunda u portret tavsifi (xarakteristikasi), obraz-tezisga ko'proq murojaat etadi.

Publitsistika nazariyotchilaridan biri, professor O.Tog'ayev o'z kitob, maqola va tadqiqotlarida o'zbek felyetoni muammolariga ham ko'p e'tibor qaratgan edi. Masalan, u "Publitsistika janrlari" kitobida Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlarning she'riy felyetonlarini tahlil etar ekan, "Demokrat shoir satirasining yana bir muhim xususiyati salbiy obrazlar, tiplarning yaxlit xarakteristikasini chizish mahoratidir" degan fikrni bildiradi.

Felyetonda muallif o'ta faol bo'lishi, voqealarga bimalol aralashishi, baho berishi lozim. Felyetonchilikda materialni ishlashda ikki xil usuldan keng foydalaniladi. Bular - dalillarni tizimli, ketma-ket bayon qilish — hikoyalash usuli, ikkinchisi – qiyoslash, chog'ishtirish usulidir. Shu o'rinda jadidlarning felyetonlariga murojaat etsak, A.Qodiriy, M.Behbudiy, Cho'lpon hamda A.Avloniy felyetonlarida voqealarni buzmay, ketma-ket bayon qilish, hikoyachilik uslubi ko'proq xos. A.Qodiriy "Lahmi kadid", "Qurbon bayrami" felyetonlarini ushbu uslubda yozgan bo'lsa, "Sovinak qori bilan Mag'zava qori" felyetonida qiyoslash uslubidan foydalangan. Felyeton turli usullarda yozilishi mumkin: hikoya, ertak, tush, suhbat keng tarqalgan usullardan sanaladi.

Felyetonda obrazlilik, obraz yaratish muhim bo'lib, katta mahorat talab qiladi. Obrazlilikning yuksak cho'qqisi inson obrazini yaratishdir. Obraz yaratishda muallif syujet va kompozitsiya imkoniyatlaridan, detal va tafsilotlardan, o'xshatish, jonlantirish, bo'rttirish, kichraytirish, maqol, matal, hikmatli so'zlardan, xalq iboralaridan o'rinli va unumli foydalanishi mahorat belgisi, muvaffaqiyat garovidir. Abdulla Qodiriyning "Toshpo'lat tajang nima deydi?",

“Kalvak maxsum xotira daftaridan”, “Shirvon xola nima deydi?” felyetonlari janrning yuksak namunalari bo‘lib, yosh qalamkashlar uchun mahorat, ibrat maktabidir.

Jadidlar publitsistikasiga nazar tashlasak, o‘sha davrlardagi “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Turkiston” gazeta sahifalarida ham felyeton xususiyatiga ega bo‘lgan hajviy materiallar bosilgan. Lekin chinakam badiiy publitsistik felyetonning beshigi “Mushtum” (1923 yildan chiqa boshlagan) jurnali bo‘ldi.

Jurnalning tashkilotchilari va dastlabki xodimlari hisoblangan Abdulla Qodiriy va G‘ozi Yunusning publitsistik va belletristik felyetonlari bosildi. G‘ozi Yunus kundalik hayotiy faktlar bilan sug‘orilgan, korrespondensiya xarakteriga ega bo‘lgan publitsistik felyetonlar yaratgan bo‘lsa, Abdulla Qodiriyning hajviyoti hikoya xususiyatlari omuxta bo‘lib ketgan umumlashgan badiiy-publitsistik felyetonlardan iborat edi. Abdulla Qodiriyning “Kalvak Mahzumning xotara daftari”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi”, “Moskovdan xatlar” kabi felyetonlari “Mushtum”ning qator sonlarida davomli bosilgan.

Samarqanddagi “Zarafshon” gazetasiga ilova tarzida nashr etilgan “Mashrab” (1924-1927 yillar), “Yangi Farg‘ona” gazetasining “Chig‘iriy” deb atalgan hajviy bo‘limida turli hajviy asarlar bilan birga felyetonlar ham bosilgan.

20 yillarning ikkinchi yarmida G‘afur g‘ulom, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy va boshqalar o‘z felyetonlari bilan o‘sha davr jadid matbuotida, jumladan, “Mushtum” jurnalida ham faol ishtirok etdi. 20 yillarning ikkinchi yarmida “Qizil O‘zbekiston”, “Kambag‘al dehqon”, “Sharq haqiqati” gazetalarida, “Yer yuzi” jurnalida felyetonlar sistemali bosiladi¹⁴.

Felyeton mavzusi haqida ikki xil fikr hukm suradi. Birinchi fikr shundan iboratki, ba’zi jurnalistlar felyeton uchun maxsus kulgili mavzu, qiziq voqea bo‘lishi kerak, deydilar. Bu toifadagi jurnalistlar kulgili bo‘lmagan jiddiy mazmundagi biror mavzuni taklif etganlarida “zeriktirarli voqea” deb, felyeton yozishni istamaydilar. Aksincha, ular ayrim “qiziq” fakt, biror kishining hayotida yuz bergan latifasimon hodisani eshitganlarida uning ijtimoiy mazmuni, mohiyati

¹⁴ Саидов О. Ҳажв ва ҳазил фош этади. 1974.

haqida chuqur o'ylab o'tirmasdan felyetonbop voqea ekan, deb zavqlanadilar. Darvoqe, shunday voqea haqida tezgina "syujet" to'qi bir amallab felyeton ham yasab tashlaydilar. Bunday felyetonlar o'z-o'zicha kulgili bo'lib tuyuladi, ammo u haqida chuqurroq o'ylab ko'rilsa, unda biror ijtimoiy foydali fikr ifodalanmagani ma'lum bo'ladi. Mavzuning asl mohiyati ochilmagan, umulashtiruvchi xulosa chiqarilmagan, g'oyasi noaniq, mazmuni sayoz, qog'oz gulga o'xshagan bunday felyetonlar ijtimoiy ta'sir kuchiga ega bo'lolmaydi.

Felyeton mavzusi haqidagi ikkinchi fikr shundan iboratki, har qanday mavzuda ham, ularning jiddiy yoki kulgili bo'lishidan qat'i nazar, felyeton yozish mumkin. "Shaxsan, men felyeton shaklida ifodalash mumkin bo'lmagan mavzu yo'q, hatto faqat raqamlardan iborat bo'lgan material (agar bu raqamlar o'z mohiyati e'tibori bilan muhim bo'lsa) ni ham felyeton shaklida ifodalash mumkin, deb hisoblayman. Agar bu raqamlar muhim bo'lsa, ular felyetonga juda mos tushadilar, jonlanib yashnab ketadilar"¹⁵.

Gazeta janrlari ommaga ikki yo'l bilan, birinchidan, konkret faktlar orqali, ikkinchidan, badiiy-publitsistik pafos orqali ta'sir ko'rsatadi. Birinchisi, gazeta ta'sirchanligining minimum darajasi bo'lib, materialda qayd etilgan faktlar asosida ma'lum joyda o'zgarish qilinadi: kamchiliklar tuzatiladi, uni yaxshilash yo'llari ko'rsatiladi. Muvaffaqiyatga erishga tashkilot, shaxslar ma'naviy rag'batlantiriladi. Bu publitsistika janrlarining hammasiga xos bo'lgan xususiyatdir. Shu bilan birga, publitsistika janrlari millionlarga g'oyaviy-estetik ta'sir ko'rsatishga ham da'vat etilgandir. Buning uchun gazetada badiiy so'z san'ati imkoniyatlaridan foydalaniladi. Ana shunday janrlardan biri felyetondir.

"Felyeton gazetada badiiy adabiyotnig barcha ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan"¹⁶ yuksak saviyadagi badiiy publitsistik janrdir. Felyetonning estetik ta'sirchanligini belgilaydigan vositalardan biri obrazlilikdir. Felyetonda obrazlilik turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- publitsistik fikrni bayon qilish;

¹⁵ М.Кольцов. Писатель в газете. Стр.49

¹⁶ М.Кольцов. Писатель в газете, 94-бет.

- assotsiatsiya;
- qiyoslash;
- badiiy shakl elementlaridan foydalanish va boshqa shu kabi vositalar.

Felyetonda obrazlilikning yuksak ko'rinishi kishi obrazidir. Atoqli publitsistlar va ularning ijodiy tajribasi felyetonda M.Gorkiy iborasi bilan aytganda "qo'l bilan ushlab ko'rish" darajasida aniq chizilgan to'laqonli kishi obrazi, hatto adabiy xarakter yaratish mumkinligini tasdiqlaydi. Misol tariqasida Abdulla Qodiriyning "Mochalov" felyetonini keltirishimiz mumkin unda Mochalov obrazi orqali adabiy xarakter yaratilgan. Mazkur felyetonda badiiy-publitsistik pafos yuqori. Unda to'laqonli kishi obrazi tasvirlangan: "Qo'lingda qamchin, belingda oshpichoq, shopday murtingning ostidag'i sassiq og'zingdan qizingni... onangni... diningni... ota-bobongni... degan zikr oliylar doim favvora urar edi"¹⁷.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, 20-30 yillardagi felyetonlarning mavzusi rang-barang va aktual edi. Sotsialistik o'zgarishlarga to'sqinlik qilgan sinfiy dushmanlarni fosh etish, byurokratizm va mansabparastlik ko'rinishlariga keskin zarba berish – jadidlar publitsistikasida asosiy g'oyaviy mazmunni tashkil etgan. Jadid felyetoni hayotning hamma sohasiga nisbatan qo'z-quloq bo'ldi. Oilada bola tarbiyasidan tortib, adabiyot va san'atdagi g'oyasizlik ko'rinishlarigacha felyetonda o'z aksini topadi. Bu yillarda jadidlar felyetonlari asosida mazkur janr adabiy mahorat va janr xususiyatlari jihatidan ham takomillashdi. 20 yillar davomida janr shakllanish davrini boshidan kechirdi. Bu yillarda, asosan, hajviy va yumoristik ifoda vositalari orqali qayta ishlangan oddiy maqola va korrespondensiyalardan iborat edi.

2.2. Xat va ocherklar.

Xat, ocherk, felyeton jadidlar publitsistikasining yirik va murakkab janrlaridan hisoblanadi. Xat publitsistikasi janr xususiyatlari jihatidan. Bir tomondan, ijtimoiy-analitik publitsistika (korrespondensiya, maqola, reportaj...)

¹⁷ Абдулла Қодирий. Ғирвонлик Маллавой/ Мочалов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 347-бет.

bilan, ikkinchi tomondan badiiy publitsistika (ocherk, felyeton...) bilan bog'liqdir. Informatsion-analitik hamda badiiy emotsionallik xususiyatiga ega bo'lgan xat janrini hayot haqida tushuncha va tasavvur hosil qiluvchi ocherk va felyeton janrlari bilan birga ilmiy-nazariy tadqiq etish, badiiy publitsistik mahoratnig rang-barang tomonlarini nazariy hamda amaliy jihatdan kengroq o'rganish maqsadini ko'zda tutadi. Shuningdek, bu janrlar spetsifik xususiyatlarining mufassal tekshirilishi boshqa publitsistik janrlar nazariy muammolarini oydinlashtirishga yordam beradi.

Xatda avtor shaxsiyati, individual insoniy ruhiy holati, kechinmalari xolisona aniq ifodalanadi. Bu mulohazalar mehnatkashlar tomonidan yoziladigan "xalq publitsistikasi" deb atalgan xat janrining bosh xususiyatini aniqlashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xat janrining o'ziga xos xususiyati uni xabar bilan solishtirib ko'rganimizda yanada namoyon bo'ladi. Xat bilan xabar janrlarining bir-biridan muhim farqi shundaki. Agar xabarning bosh muddaosi yangi, muhim faktlarni gazetxonga ma'lum qilishdan iborat bo'lsa, xat hayotda, ijtimoiy faoliyatda sodir bo'lgan fakt va faktlarga munosabat bildirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Agar xabarda fakt asosiy va birinchi o'rinda tursa, xatda faktga nisbatan munosabat bildirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Aniqrog'i, xabarning o'zagini fakt tashkil etsa, xatning tub mohiyatini, uning yuragini faktning o'zi emas, avtorda mazkur fakt tufayli tug'ilgan shaxsiy fikr-o'ylar, kechinmalar, individual his-tuyg'ular tashkil etadi. Xabarda qayerda, qachon, nima voqea sodir bo'lganligi haqida ma'lumot berilsa, xatda ham shunga o'xshash qaerda, qachon, nima voqea sodir bo'lganligi haqida gapiiladi. Biroq xatda shu faktlarni ma'lum qilish asosiy muddao emas. Xatdagi faktlar shu holicha gazetada, ayniqsa, respublika siyosiy gazetalarida e'lon qilishga munosib muhim fakt emas. Bunday xatlarning respublika gazetasi uchun muhim tomoni avtorning shu faktlarga bo'lgan munosabatini gazetxonlarga etkazishdir.

Xullas, xat jadid matbuotining tipik janrlaridan biridir. Xat janri matbuotda tashviqot, targ'ibot hamda tashkilotchilik funksiyasini bajaradi.

Jadidlar publitsistikasida ochiq xatlar ham ko‘plab chop etilgan. Eslatib o‘tish kerakki, ochiq xat janr sifatida yozuvchilar, jurnalistlar ijodida shakllandi va rivojlandi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz xat janrining xususiyatlari ochiq xatda yanada takomillashadi va chuqurlashadi. Ochiq xat uch asosiy elementdan iborat bo‘ladi:

- 1) avtor shaxsiyati;
- 2) situatsiya;
- 3) adresat shaxsiyati.

Ba’zi ochiq xatlarda avtor shaxsiyati keng o‘rin olsa, boshqalarida adresat shaxsiyati talqiniga alohida e’tibor qilinadi. Boshqa bir xil xatlarda esa situatsiya tahlili xatning g‘oyaviy yo‘nalishini belgilaydi. Ba’zi xatlarda bu uch element chambarchas qo‘shilib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq publitsistikasi xalq fikr-qarashlari, kayfiyatining haqqoniy ifodasidir. Ochiq xatlar ijtimoiy publitsistika bilan badiiy publitsistika oralig‘idagi janr bo‘lib, ocherk, felyeton, pamflet janrlarining badiiy publitsistik vositalaridan foydalaniladi. Kuchli ehtiros bilan yozilgan, muhim muammo ifodalangan xatlarda avtor obrazi gavdalanadi.

Ocherk — badiiy-publitsistikaning keng tarqalgan, yetakchi janrlaridan biridir. Tabiatiga ham badiiyat, ham publitsistika belgi, xususiyatlari xos bo‘lgan ushbu janr ikki jihatdan baholanadi. “Ocherk hikoya bilan tadqiqot o‘rtasiga yaqin joyda turadi”, degan edi Maksim Gorkiy. Ijodiy faoliyati davomida bu janrning ko‘plab yetuk namunalarini yaratgan mashhur rus adibining gaplarida jon bor. Ocherk sof hikoya ham, sof tadqiqot ham emas, balki ularning bir qator alomatlarini bag‘riga singdirgan o‘ziga xos sintetik asardir. Ruscha “ocherk” so‘zi “chertit”, “ochertit”, ya’ni “chizmoq”, “chizib ko‘rsatmoq”, “chegaralab olmoq” ma’nolarini bildirishini, shuningdek, aksariyat ocherklarning publitsistika bilan to‘yinganligini ham nazarda tutsak, bu janr xususiyatlarini anglab olishimiz oydinlashadi.

“Chizmoq”, “chizib ko‘rsatmoq”, “chegaralab olmoq”, “doira qilib belgilamoq” so‘zlari bayon etmoq, tasvirlamoq, baholamoq tushunchalaridan tashqari, asar kompozitsiyasiga, ya’ni shakli-shamoyiliga ham ishora qilib turadi.

Ocherkka berilgan ilmiy ta’riflar turlichadir. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «ocherk – hayotiy faktlarni qisqacha tasviridan iborat kichikroq badiiy asar», deyiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu o‘rinda ocherk ta’rifiga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashilgan. «Jurnalist spravochnigi»da esa «Ocherk – kishilar haqida obrazli tasavvur berish, ularni harakatda ko‘rsatish, voqealarning mohiyatini ochib beruvchi janrdir», deyiladi. Bu ta’rifda ham mazkur janrning barcha xususiyatlari ochilmagan, chunki ocherk faqat kishilar haqida emas, biror ijtimoiy, tabiiy-ekologik va boshqa muammolar haqida ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, yuqoridagi ta’rifda aytilgan «voqealarning mohiyatini ochib berish» xususiyati faqat ocherkkagina emas, publitsistikaning boshqa janrlariga ham xosdir. Rus tadqiqotchilaridan E.I.Jurbina bu janrga «Ocherk – badiiy adabiyot va publitsistikaning murakkab ko‘p qirrali shaklidir», deb ta’rif beradi. Bu ta’rifning kamchiligi shundaki unda ocherk ham badiiy adabiyot ham publitsistikaning janri etib ko‘rsatilmoqda. Bu ma’lum darajada noaniqlikka olib keladi. Yana bir rus tadqiqotchisi K.V.Kovalevskiy esa «Ocherk – o‘quvchiga kishilar, ularning ishlari, voqealar haqida obrazli tasavvur beradi», deb yozadi. Bu ta’rif ham ilmiy aniq va mukammal emas, chunki badiiy adabiyotga xos bo‘lgan barcha janrlar – she’r, hikoya va boshqa janrlar ham «kishilar, ularning ishlari, voqealar haqida obrazli tasavvur» beradi.

O‘zbek tadqiqotchisi O.Tog‘aev mazkur janrga: “Ocherk gazeta janrlari orasida eng murakkab, eng ziyrak, ixcham, hozirjavob janrdir”¹⁸ deb tushuncha beradi. Bu ta’rif ham ilmiy mukammal emas, chunki ocherk jurnalidan ham, radio va televideniedan ham joy oladi, ikkinchidan – badiiy publitsistik janrlardan felyeton va pamflet ham murakkablikda ocherkdan qolishmaydi, “Ziyrak” tushunchasi esa odatda ijodiy asarga emas, odamga nisbatan ishlatiladi, “ixcham” tushunchasi ham ocherkka hajm jihatidan to‘g‘ri kelmaydi, chunki xabar

¹⁸ Тоғаев О. Публицистика жанрлари. – Т., Ўқитувчи, 1976, 58-бет.

ocherkdan “ixcham”roq, hozirjavoblik nuqtai nazaridan xabar, reportaj, sharh ocherkdan oldinroq turadi va hokazo. Bizningcha, ocherk – badiiy publitsistikaning asosiy janrlaridan biri bo‘lib, voqelikni obrazlar va obrazlilik vositasida tasvirlaydi va hamda publitsistik xulosalar chiqaradi. ya’ni, ocherk hayotdagi voqea va hodisalar, faktlar, muammolarni obraz va obrazlilik yordamida aks ettiradi, ularni publitsistik yo‘l bilan tadqiq etadi hamda ularga nisbatan jamoatchilik fikrini uyg‘otuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy xulosalar chiqaradi.

Ocherk badiiy-publitsistik janr bo‘lganligi uchun unda badiiy adabiyotga xos bo‘lgan vositalar bilan publitsistik xususiyat uzviy bog‘lanib ketadi. U so‘z san’ati bilan so‘z siyosati uyg‘unlashuvchi, boshqacha qilib aytganda – siyosat, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy fikr, maqsad badiiy adabiyot vositasi, san’at so‘zi bilan aytiluvchi janrdir. Ya’ni, ijtimoiy voqelikni aks ettirishning alohida bir turi bo‘lgan publitsistika jamiyat haqida ma’lumot berish, uning muammolari haqida jamoatchilik fikrini uyg‘otish bilan shug‘ullanar ekan, xuddi ana shu vazifalarni badiiy vositalar ko‘magida amalga oshiradi va uning bunday serqirra janri ocherk deb ataladi. Unda badiiy adabiyotga xos bo‘lgan belletristika (naqlchilik) va matbuotga xos bo‘lgan publitsistika (ijtimoiyot) birlashib ketadi. Ocherkning badiiy talabi undagi voqelikning obrazli tasviri, inson qiyofasi va ichki dunyosi, mehnati va intilishlari, yaratuvchilik faoliyatini badiiy vositalar bilan jonlantirib tasvirlashdan iborat bo‘lsa, uning publitsistik jihati muallifning voqea va hodisalar, unda ko‘tarilgan muammolar haqidagi fikr-mulohazalari, chiqargan xulosalaridan iboratdir. Ocherkda obraz va obrazlilik o‘xshatish, qiyoslash, sifatlash, emotsionallik, obrazli tafakkur va tasvir jonli til va uslub, tipiklashtirish, badiiy to‘qima bilan fakt uyg‘unligi, syujet, kompozitsiya va boshqa badiiy vositalar orqali o‘z ifodasini topsa, uning publitsistikaga oid qirrasi esa fakt tanlash, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy jihatdan chuqur tadqiq va tahlil qilish, baholash, zarur xulosalar chiqarish orqali amalga oshiriladi. Bu esa ocherkchidan publitsist sifatida hayotdagi fakt va hodisalarni tanlab olish, ular haqida chuqur mushohada yuritish bilan birlikda ijodkor, yozuvchi sifatida ham ish olib borib, olingan fakt va

hodisalarni badiiy vositalar orqali obrazli tasvirlash, kishilar obrazini yarata olish, badiiy-publitsistik mushohada yuritishni talab qiladi.

Ocherk bilan hikoyaning mushtarak va farqli jihatlari nimada?

Hikoya - ijtimoiy muhim voqeaga bag'ishlangan, hajman uncha katta bo'lmagan, badiiy to'qima, syujet, kompozitsiya imkoniyatlaridan keng foydalanib, voqea-hodisani quyma timsollar, tipik obrazlarda gavdalantirib beradigan nasriy asar bo'lsa, ocherk, asosan, mantiqiy muhokamalar, tushunchalar, shuningdek, badiiy obrazlar uyg'unligida yaratilib, muhim, dolzarb ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqadigan, ko'p hollarda hayotiy voqea, hujjatlar asosida qurilib, aniq qahramon, personajlar xarakteri chizgilarini ko'rsatadigan nasriy publitsistik asardir. Hikoyada badiiy tasvir, quyma obrazlar ustuvor bo'lsa, ocherkda mantiqiy muhokama, tushuncha obrazlar orqali liriko-publitsistik bayon usuli asosiy o'rinni tutadi. Albatta, bunda muallifning yozish mahorati, tili, uslubi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ocherk atamasi o'zbek matbuoti, adabiyotiga XX asr boshlaridan, asosan, rus adabiyoti, matbuoti orqali kirib keldi, jadid adabiyoti namunalarida ham bu terminni ko'p uchratish mumkin. Ocherkning, xususan, portret ocherki, yo'l ocherklari (safarnoma)ning eng yaxshi namunasini M.Behbudiy va A.Qodiriy ijodida kuzatiladi. Ularning ocherklarini kuzatar ekanmiz, ularda mantiqiy muhokama, ehtiros, hayajon, cho'g' ham, tahlil, tadqiq (analiz) ham, xulosa, umumlashma ham, xullas, badiiy-publitsistik asar uchun xos, mos bo'lgan barcha unsurlar mavjudligi ko'ramiz.

Ocherk ijodning ikki turi - badiiy ijod va publitsistik ijod unsurlari, imkoniyatlaridan birdek foydalangan, ikki ijod turi xususiyatlarini o'ziga singdirgan, omuxta, sintetik asar ekanini unutmaslik lozim.

Ocherk badiiy ijodning obraz, manzara, quyma tasvir, jozibali til, xarakter, sharoit va hokazo imkoniyatlaridan oziqlansa, publitsistikadan mantiqiy muhokama, raqamlar mag'zini chaqish, tahlil etish, xulosalar chiqarishda qo'l keladi.

Ocherklar mavzusi, mundarijasiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. Portret ocherk.
2. Muammoli ocherk.
3. Yo‘l ocherki (safarnoma).

Portret ocherklari. Adabiyot - insonshunoslik ekan, ocherk ham inson hayoti, ruhiyati bayoni, tasviridir. Portret ocherk aniq bir inson hayoti, ijtimoiy faoliyati, siynati chizgilari, ruhiy dunyosi, ma’naviy olami, tashqi va ichki qiyofasi, kurashlari, g‘alaba va mag‘lubiyatlari haqidagi mo‘‘jaz hikoyadir. Portret ocherkda bir (yoki bir necha guruhning) tashqi qiyofasi, ichki dunyosini tasvirlash, tavsiflash orqali muhim g‘oyalar ilgari surilishi, dolzarb muammolar o‘rtaga qo‘yilishi mumkin. Tabiat tasviri — portreti chizilgan ocherklar ham uchrab turadi.

Muammoli ocherk - davrning etilib, pishib turgan dolzarb muammolarini dadil o‘rtaga qo‘yishi, publitsistik cho‘g‘dorligi, badiiy bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadi. Muammoli ocherk badiiy to‘qima asosiga ham, konkret voqea asosiga ham qurilishi mumkin. Gap muammoning hayotiyligi, dolzarbligida.

Yo‘l ocherki — janrning keng tarqalgan, qadimiy va navqiron turlaridan biri bo‘lib, uning asosiy xususiyati safar davomida ko‘rilgan, kuzatilgan voqealar, odamlar bilan muloqotdan olingan taassurotlar, ko‘ngilda kechgan his-tuyg‘u, fikr-mulohazalar, muammolar bayoni, tasviridan iborat. Yo‘l ocherkida muallif niyati, safar yo‘nalishi ko‘pincha oldindan belgilab olinadi, bu narsa asar kompozitsiyasi, yozish manerasida tili, uslubida o‘z izini qoldiradiki, buni jadidlar publitsistikasida ham ko‘rishimiz mumkin.

Tabiiylik, samimiylik, haqqoniylik, xolislik bilan bitilgan, o‘nlab voqealar, detallar ichida eng arzirli, diqqatga sazovorlarini tanlab olib ko‘rsatish yo‘l ocherkiga qo‘yiladigan talablar ichida eng muhimlaridir. O‘quvchi sayohatchi muallifning rost-yolg‘on gapini, samimiy yoki nosamimiyligini, salmoqli, jo‘yali yoki mayda, arzimas gapini darhol anglaydi va shunga yarasha o‘z bahosini beradi.

Jadidlari ijodidagi ocherklarning ma‘no-mohiyatini to‘laroq anglash uchun Abdulla Qodiriyning “G‘irvonlik Mallavoy” ocherkini o‘rganamiz. Mazkur ocherkda barcha turlarning qorishiq ishlatilganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, undagi g‘irvonliklarning tasvirlari portret ocherk namunasi bo‘lsa, hazil-mutoyiba

tarzida keltirilgan asarning tagzamidagi muammo, oʻtkir muammolar – qoloqliq, omilik, dangasalik kabilar yashiringanligi bilan muammoli ocherkni eslatadi:

“Ekinga bir tuya kirib palakni payxonlab yurganligini sezgan gʻirvonlik bir dehqon yordamga qoʻni-qoʻshnilarini chaqiradi. Tuyani quvlab, ekindan chiqarish oʻrniga orada maslahat boshlanadi.

–Agar hayvonni quvlasoq, ekinni battarroq payxonlaydi, – deydilar, – yaxshisi shuki ilgari tuyani tutib, oyoq-qoʻlini bogʻlash kerak, soʻngra hammamiz birdan sudrashib yaqindan chiqaramiz!

Maslahat shunga toʻxtalgandan soʻng tuya tutiladi, oyoq-qoʻli bogʻlanib yiqitiladi va tevarakdan “ha, ha”lashib tuya sudraladi. Ming balo bilan tuyani ekindan chiqarilsa ham lekin palakning uchdan biri kishilar va sudralgan tuya ostida ezilib nobud boʻladi”¹⁹

Shu oʻrinda, Mallavoyning ishlari esa xuddi yoʻl ocherki kabi talqinga ega ekanligini ham tahlil qilish davomida guvohi boʻlishimiz mumkin.

Oʻzbek matbuotida ocherk asosan Turkiston milliy uygʻonishi davrida – jadid matbuoti sahifalarida vujudga keldi. Bunga M.Behbudiyning yuqoriroqda qayd etib oʻtilgan yoʻl ocherklari misol boʻla oladi. Shoʻrolar davrida ocherk janriga katta eʼtibor berildi, u matbuot sohalaridan doimiy joy oldi. Bunga sabab – ocherk hukumat rahbarlari uchun xalqni mehnatga jalb etish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Hayotdagi birorta ilgʻor mexanizator haqida (masalan, Tursunoy Oxunova va boshqalar) oʻnlab mualliflar ocherk yozgan edilar. Bu davr ocherklarining aksariyati bir yoqlama, sunʼiy, hayotdagi fakt va hodisalar uydirma tarzida yozilar edi.

Mazkur janr taraqqiyotini oʻrganadigan boʻlsak, mustaqillik davrida matbuotimizda yuqorida koʻrilganidek ocherk janri oʻzining munosib oʻrnini egalladi. Oʻz mehnati bilan boshqalarga ibrat boʻlayotgan ishlab chiqarish ilgʻorlari, ishbilarmon tadbirkorlar, ilm-fan, taʼlim-tarbiya sohasida yaxshi muvaffaqiyatga erishgan mutaxassislar ocherklarimiz qahramonlari boʻlmoqdalar.

¹⁹ Абдулла Қодирий. Ғирвонлик Маллавой. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 310-бет.

Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy o'zgarishlar hamda hal etilishi lozim bo'lgan zarur muammolar haqida yaratilayotgan ocherklar jadidlar davridagi ocherklar orasidagi farqni yaqqol ko'rsatib beradi.

Shu o'rinda, taraqqiyotning yana bir ko'rinishi sifatida hozirgi davrda matbuot – gazeta va jurnal ocherklari bilan bir qatorda radio, televizion ocherklar ham mavjudligi eslatib o'tish kerak. Radio va televideniya ocherklari mazkur janrning umumiy qonunlariga bo'ysunishi bilan birlikda ommaviy axborot vositalarining bu ko'rinishlariga xos bo'lgan xususiyatlarini ham o'zida ifoda etadi.

Xullas, jadid yozuvchilari publisistikaning qariyb barcha tur va janrlarida Milliy uyg'onish davri g'oyalarini xalq ommasi ongiga quyishda qizg'in ishtirok etdilar. Jadidlar tufayli publisistikaning xalq hayoti bilan aloqasi mislsiz darajada mustahkamlandi, adabiyotning ham g'oyaviy va estetik ta'sir kuchi oshdi. Eng muhimi, bu publisistika g'aflat og'ushida yotgan, baxtli va farovon turmush, erk va musatqillik haqidagi orzu-o'ylari ikkiyoqlama zulm sharoitida so'ngan xalq ommasining ko'zini ochib, uni shahdam qadamlar bilan olg'a borayotgan XX asr bilan, yangi dunyo bilan, ma'rifat va mustaqillik g'oyalari bilan tanishtirdi.

III BOB. JADID PUBLITSISTIKASINING MAVZU RANG-BARANGLIGI.

3.1. Davr muammolari talqini

1905 yil... Chorizmga, uning zulmiga qarshi barcha mehnatkash xalq, jumladan Turkiston xalqlari ham kurash olib bormoqda edi. Shunday bo‘ronli, dolzarb bir davrda jadid publitsistikasining ahamiyati nihoyatda katta edi. Mahalliy mehnatkashlarni Rossiyada davom etayotgan buyuk voqealar bilan tanishtirib borish uchun, uni targ‘ib-tashviq qilish uchun Turkistondagi siyosiy sharoit o‘zbek tilida matbuot nashri tashkil qilishni taqozo eta boshladi.

O‘lkadagi ilg‘or fikrli ziyolilarning katta qismi ham oshkora kunnoma tashkil etish uchun harakatga tushdilar. Chunki bunday kunnoma xalqqa ozodlik uchun kurashlar, ularning borishi haqida, umuman, davr va jamiyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan asosiy muammolar haqida ma‘lumotlar berishi kerak edi.

Chorizmga qarshi umumiy kurashga otlangan keng mehnatkashlar ommasining ongini oshirish uchun, ularga kim do‘st, kim dushman ekanligin ko‘rsatib, tushuntirib berish uchun xalqchil kunnoma nashr etish nihoyatda zarur va shart bo‘lib qolgan edi.

Bunday katta mas‘uliyatli va xayrli vazifani “Taraqqiy” kunnomasi o‘z zimmasiga olganligini gazeta sahifalaridagi jadidlarning publitsistik maqolalaridan bilib olish mumkin. “Taraqqiy”ning birinchi sonidayoq o‘zining oldiga qygan aniq maqsadini “Najot, maslakda sabot, to‘g‘rilikni ijobat. Ilmiy, adabiy, siyosiy, fanniy, tijoriy gazetadir. Osiyo vasatining maishatidan bahs qilur. Muharrir va noshiri Said Ismoil G‘abidov”, – deb ifodalanishi fikimiz isbotidir. Ta’kidlash kerakki, mazkur kunnoma o‘z sahifalarida bosilgan maqolalari bilan o‘zbek publitsistikasiga, jurnalistikasiga asos soldi.

Bu davr publitsistikasija jadidlar tomonidan o‘sha davrning eng dolzarb muammolari, og‘riqli nuqtalari ko‘tarib chiqildi. Jumladan, jadid matbuotida ko‘zga tashlangan, tilga olingan muammolarning ko‘lami, jadid publitsistikasining mavzu rang-barangligi quyidagilardan iborat:

- 1) bid'at va mutaassiblikni qoralash;
- 2) jaholat, qoloqlikni ko'rsatish;
- 3) ma'rifatparvarlik;
- 4) iqtisodiy taraqqiyotga da'vat;
- 5) aholini xalqaro ahvol bilan sodda tarzda tanishtirish;
- 6) fan va texnika yutuqlaridan ham bahramand bo'lishga undash;
- 7) umummadaniyatga erishish uchun harakatga chorlash va shu kabilar.

Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, "Taraqqiy"ning 1906 yil 30 iyul 13-sonida chop etilgan "Dunyo yig'uvchilar va mehnat qiluvchilar xususida", 19-sonida chop etilgan "Fuqaroga oid" nomli maqolalarni ham o'sha inqilobiy davrning dolzarb muammolari tilga olingan etuk ijtimoiy publitsistikaning namunalari, deb izohlash mumkin.

Kunnoma o'zining "Dunyo yig'uvchilar va mehnat qiluvchilar xususida" nomli publitsistik maqolasida bir-biriga butunlay zid bo'lgan ikki tabaqa, ikki sinf – quyi va yuqori sinf haqida fikr yuritadi. Halol mehnat bilan moddiy boyliklar yaratgan mehnatkashlar xorlikda, mehnat qilmagan bir hovuch yuqori tabaqa "kayf-safo", farog'atda, to'kinlikda yashayotganligini achchiq, ammo haqqoniy satrlarda isbotlab beradi: "Astar nomlik milliarderning xotuni besh ming so'mlik kiyim kiyadurkim, ul kiyim har qanday javohirot bilan murassa'dur va Martens nomlik milliarder xotunining la'l va munchog'i to'rt lak so'mg'a oling'andur va Morgan nomlik milliarder benihoyat ko'p itlarni saqlab, ul itlar uchun katta bir qasr bino qildi va ul qasr yonida maxsus mazkur itlar bilan sayr qilmoq uchun katta bir bog' bordur va itlar cho'miltirmoq uchun bir yaxshi xavz bordur"²⁰.

Yana kunnoma shu maqolaning o'zida kechayu kunduz mehnat qilib kiyinish u yoqda tursin, hatto qorni ham nonga to'ymayotgan mehnatkashlarning achchiq chismatini alamli satrlarda bayon qiladi va ularga o'zining to'la xayrixohligini bildiradi: "Va ul behuda odamlarning fe'l va kirdikorlariha nazar solib, mulohaza qilganimizda ko'rasizki, itlarini bul tariqa shash va tajammul bilan boqib turgon odamlarning zavod va korxonalarida ishlab turadurg'on odamlar, bil'aks yaxshi it

²⁰ "Тараққий". 1906, 30 июль, 13-сон.

turoldurdug'on joylarda turur, och va yalang'och yurubdilarki, itlarig'a xo'p parvo qiladurg'on sangdil va qatiq ko'ngil milliarderlar olar uchun mehnat va xizmat qiladurg'on odamzod birodarlarning hollarig'a aslo qaramaydurlar va olarg'a parvo qilmaydurlar"²¹.

Kunnoma mazkur maqolada davr muammolaridan hisoblangan sinfiy tengsizlik, sinfiy tabaqalanish haqida fikr yuritadi, jamiyatning ikki guruhga – boylar, kambag'allar guruhiga bo'linganligini, birinchi tabaqa ikkinchi tabaqa ustidan zo'ravonlik yurgizayotganiligini, yuqori tabaqa quyi tabaqa hisobiga yashayotganligini insonparvarlik nuqtai nazaridan turib tahlil qiladi. Maqola boshidan oxirigacha mehnatkash xalq manfaatlari nuqtai nazaridan turib yozilganligi aniq sezilib turibdi. Mazlumlar zulm, zo'rlikka, ekspluatatsiyaga qarshi kurash olib borayotgan bir davrda bu maqolaning nashr etilishi juda katta siyosiy va g'oyaviy ahamiyatga ega edi. Maqola davomida tengsizlik albatt yo'qoladi, u abadiy emas, uni o'zgartirish odamlarning qo'lida, unga qarshi birgalikda kurashmoq kerak, degan g'oya ta'kidlanib boradi.

Aytish mumkinki, o'sha davr publitsistikasining yo'nalishini asosan ilg'or fikrli ziyolilar, jadidlar belgiladilar. Shuning uchun ham, ular kunnoma va oynomalarda davrning eng asosiy, dolzarb masalalarini xalq manfaatlari nuqtai nazaridan turib yoritishga intildilar. Turkistonning ijtimoiy-siyosiy masalasini badiiy obraz va lavhalarda gavdalantirishga harakat qildilar.

Jumladan, Fitrat ko'p maqolalarida xalqning milliy ongini uyg'otishni istaydi, unga o'zligini tanitmoqni orzu qiladi. Shu niyatda u bevosita millatga murojaat qiladi, uning o'tmishi buyukligi haqida gapiradi va bu milliy qadriyatlardan iftixor qilish lozimligini uqtiradi. Bularning bari 18—19-yillarda yozilganini, ya'ni hali Qo'qon jarohatlari eskimay turib, uning fojialari xira tortmay turib yozilganini hisobga olsak ularning qimmatini yanada ortadi. Bunga amin bo'lmoq uchun birgina kichik parcha keltirishning o'zi kifoya.

Fitrat 1917-yilda "Hurriyat" gazetasida 5-dekabrda e'lon qilingan "Muxtoriyat" degan maqolasida yozadi:

²¹ "Тараққий". 1906, 30 июль, 13-сон.

"Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi, og'zimiz qonlandi, erimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumurildi, nomusimiz g'asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo'ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to'zimlik turdik, sabr etdik, kuchga tayangan har bir buyruqqa bo'ysundik, butun borlig'imizni qo'ldan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yalintirdik, imonlarimizni avaylab saqladik:

"Turkiston muxtoriyati!"

Naqadar ehtirosli, otashin misralar! Unda yarim asrlik mustamlaka davrining tarixi ham, bu davrda tortilgan alam-iztiroblar ham, xalq qudratiga ishonch ham mana man deb ko'rinib turibdi!

Jadid publitsistikasining rivojini yana shu fakt bilan tasdiqlash mumkinki, inqilobdan avval unda ko'tarilgan masalalar faqat millatning ichki hayoti bilangina chegaralanib qolgandi, endi esa tematika kengayadi, mazmun chuqurlashadi, mualliflar dadillik bilan xalqaro siyosiy hayot hodisalariga murojaat qila boshlaydilar. Biroq bunda ham ular o'zlarining bosh maqsadlarini unutmaydilar — "ulug'" davlatlarning shovinistik siyosatlarini fosh qilib, mustamlakachi-likni keskin rad qilish yo'lidan boradilar. Bu jihatdan yana Fitrat faoliyati diqqatga sazovor — u bu yillarda "Ingliz o'yinlari" ("Hurriyat", 1918-yil 64-son), "Ingliz va Turkiston" ("Hurriyat", 1918-yil 82-son), "Afg'oniston ishlari" ("Ishtirokiyun", 1919-yil 30-aprel), "Afg'on va ingliz sulhi" ("Ishtirokiyun", 1919-yil 23-sentabr), "Sharq siyosati" ("Ishtirokiyun" 1919-yil 25—26-sentabr) kabi maqolalarini e'lon qildiki, ularda imperialistik kuchlarning mustamlakachilik siyosatlarini keskin fosh qildi. Masalan, "Sharq siyosati" maqolasida yozadi:

"Ularning tilaklari bizga madaniyat berib, bizda maorif tarqatish, bizni taraqqiy ettirish emas, turli fohishaxonalar, mayxonalar ochib, bizning axloqimizni buzmoq, bizning sog'lig'imizni xarob etmoq va urug'imizni quritib, bizni ishdan chiqarmoq va qo'llariga muhtoj qilib qo'ymoqdir. Ular Sharq xalqini butun yo'q qilib, Sharqni o'zlariga moya qilmoqchi erurlar".

Bu parcha hech qanday izohga muhtoj emas — uning salmog'i va teranligi bugun ham yaqqol ko'rinib turibdi.

Cho'lpon ham o'zining 20-yillardagi publitsistikasida ichki muammolar haqida yozish bilan birga, xalqaro dolzarb siyosiy mavzularda ham qalam tebratib, mustamlakachilik siyosatini fosh qilishga katta hissa qo'shdi. Faqat uning o'ziga xosligi shunda ediki, u Fitratga o'xshab umuman Sharq haqida emas, balki muayyan mamlakatlar, muayyan xalqlarning kurashi haqida yozdi, jumladan, uning 20-yillardagi ancha-muncha maqolasi bevosita turk xalqining milliy ozodlik harakatiga bag'ishlangan. Cho'lpon turklarning chet ellik bosqinchilarga qarshi kurashi haqida yozar ekan, uning "istiqlol erlariga" samimiy muhabbati har bir satrdan mana man deb ko'rinib turadi.

Jadidlarning ana shu va shularga o'xshash yana boshqa o'nlab publitsistik asarlari o'sha kezlarda o'zbek xalqining milliy ongini uyg'otishda katta rol o'ynadi va uning qalbida milliy iftixor tuyg'ularini jo'sh urdirdi. 20-yillar boshidagi jadid publitsistikasining muhim jihatlaridan biri shundaki, u jadid adabiyotining mazmuni yangilanib borayotganidan dalolat beradi. Masalan, avvalgi davrlarda asarlar mavzuining torligi sezilardi, ko'p hollarda bevosita tasvir o'rini didaktizm, quruq nasihat egallardi, aytilmoqchi bo'lgan fikrni kitobxonning og'ziga chaynab solib qo'yishga intilish kuchli edi. Endi bo'lsa, ular kamayadi, badiiyat kuchayadi va mazmundagi hayotiylik yangi bosqichga ko'tariladi.

“Oyina” jurnalida Mahmudxo'ja Behbudiy ijtimoiy mavzularda, ilmiy-ommabop, ma'rifiy maqolalar e'lon qildi. Uning “Millatni kim isloh etar?”, “Oh, bonglar bizni barbod etdi”, “Yoshlarga murojaat”, “Mayda qarz, mulkiy kredit kabi maqolalari ijtimoiy-iqtimodiy mavzularda yozilgan bo'lsa, “Turkiston”, “SHerdor madrasasi”, “Ulug'bek rasadxonasi”, “Tarixi ixtiroiy bashar”, “Tanqid saralamoqdur”, “Til masalasi”, “Sart so'zi majhuldur”, “Tarix va jug'rofiya”, “Hifzi sihati oila” kabi maqolalari ilmiy-ommabop ma'rifiy xususiyatga ega.

Mahmudxo'ja Behbudiy ham ayrim xodisalarning ijtimoiy mohiyatini ochib berishga intilgan. Uning “Tiyotir nadur?” sarlavhali maqolasida buni yaqqol ko'rish mumkin. Muallif “Tiyotir nadur?” deya savol bergach “Tiyotir ibratnamodur”, “Tiyotir vazxonadur, tiyotir taziri adabiydir”, deya unga timsolli ta'rif beradi. Ayni paytda, teatrning jamiyat a'zolariga saboq beruvchilik

xususiyatini ham qayd etadi: “Teatrxa sahnlarinida qo’yulatturg’on sarlar fojea, ya’ni qayg’ulik, mazahga ya’ni kulgu drama, ya’ni hngomalik bir voqea va hodisani tasvir etib haloyiqg’a ko’rsatilur. Ul voqeadagi yomonlik va yaxshilikni paydo bo’lgani va sababini har kim ko’rub, anglab, ibrat olur va yamonlikdan qo’shib, yaxshilik va harakat qilmoqg’a, tiyotirda ko’rsatilg’on voqealar sabab bo’lur”.

XX asr boshlarida jadid matbuotida keng o’rin olgan mavzular orasida ahloq, qoloqlik, ma’rifatsizlik masalalari ham yetakchilik qiladi. Jumladan, «Taraqqiy», «Sadoi Turkiston», «Ulug’ Turkiston», «Turon», «Xurshid» singari gazetalarda e’lon kilingan hajviy va publitsistik asarlarda o’sha davr boylarining qoloqligi, chor ma’muriyatining to’rachiligi, paranjining yangi zamonga mos kelmayotgani, talabalarga 5 so’m iona (ehson) qilish o’rniga, besh yuzlab so’mni restoranlarda fohishalarga sochayotgan ahloqsiz sarmoyadorlar qattiq tanqid ostiga olinadi. Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Hamza, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jaev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho’lpon kabi Uyg’onish davrining buyuk namoyandalari o’z badiiy asarlarida ahloq muammolarini dadil ko’tarib chiqdilar va yuqoridagi nashrlarda o’z publitsistikasi bilan ham faol ishtirok etdilar.

Jadidlar maqolalarining mavzu ko’lami keng: ma’naviyat, ma’rifat, tuzum, siyosat bilan birgalikda. Ta’kidlash joizki, ekologiya, tabiat va boshqa shu kabi masalalarga ham alohida o’rin ajratgan. Jumladan, “Turon” gazetasi o’z sahifalarida tozalik, sanitariya-gigiena masalalariga ham yo’lini topib jamoatchilikning e’tibori qaratilgan. Bunda o’lat, vabo kabi xavfli yuqumli kasalliklardan saqlanishning yagona yo’li tozalikka rioya qilish ekanligini tushuntira olingan. Yo’lini topib mazkur sohaga mutasaddi kishilarning vazifalari nima ekanligini aniq ko’rsatib berildi: «...Buxoromizning ko’chalarindin xirman bo’lib yotgan nurilar (go’ng) daf qilinsa ekan. Ko’cha va past ko’chalarimiz tamiz qilub, har gun bir daf’a qilub, havz ichinda tahorat olmoqdan, har turlu narsalarni havz ichindan yuvmoqdan man’ qilinsa ekan. Guzarlarda, saroylarda, madrasalarda taftish qilunib murdorliklar, nurilar daf qilinsa ekan. Havlilar ichinda bo’lgan

axlotlar, nurilarning tez-tez daf'ig'a choralar qilinsa ekan. Umumiy mubarizlarga (korbun) to'kulub ta'finlar daf' qilinsa ekan. Rastalarda ishchidir, kabobchidir, unlarga sassiq suvlarni har qayda tashlovdan man' qilinsa ekan» (gazetaning 28-noyabr soni).

2.1. JADIDLAR PUBLITSISTIKASI VA BADIY ADABIYOT

Ma'rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g'aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar. Shuni aytish kerakki, ma'rifatshilik bilan jadidchilik faqat yuzaga kelgan vaqt nuqtayi nazaridangina emas, balki o'z oldiga qo'ygan maqsadlari jihatidan ham turli hodisalar edi. Chunonchi, ma'rifatchilar mavjud holatni o'zgartirishni emas, balki uni isloh qilishni, xalqning ma'rifiy saviyasini ko'tarishni maqsad qilgan edilar. Jadidlar uchun ommani ma'rifatli qilish bosh maqsad yo'lidagi bir bosqich edi, xolos. Maqsad esa vatanni obod, millatni ozod qilish va Turkistonning avvalgi shuhratini tiklashdan iborat edi. Ishni XIX asrning 90-yillarida yangi usul maktablari tashkil qilishdan boshlagan jadidlar ko'p o'tmay, Turkistonda hur, demokratik mustaqil davlat tuzishni rejalashtirdilar. 1917-yilda Turkiston muxtoriyatining bunyod etilishi shu rejaning amalga oshirilishi yo'lidagi jiddiu urinish edi. XX asr boshiga kelib, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, xalqaro aloqalarning takomillashuvi millatning ma'rifatli vakillariga o'z xalqi hayotini dunuodagi mutaraqquu xalqlar turmushi bilan solishtirish imkonini berdi.

10-yillarda jadid matbuoti bilan birgalikda jadid adabiyoti ham maydonga keldi. Bu adabiyot asosan 1905-1918-yillarda shakllanib, Turkiston muxtoriyatining mag'lubiyatga uchrashi bilan o'z umrini tugatdi va uning aksar vakillari sho'ro hokimiyati bilan murosaga kirishdilar.

Jadid adabiyoti garchand qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, jadid yozuvchilari badiiy ijodning qariyb barcha turlari isloh etilishi va taraqqiy qilishiga katta hissa

qo`shdilar; eng muhimi, xalqning ko`zini ochib, uning 1916-yili o`z haq-huquqini talab etib, maydonga chiqishiga yo`l ochib berdilar.

Jadid adabiyotining yetakchi sohasi she`riyatdir. O`zbek mumtoz she`riyatidan ham vazn, ham til va uslub, ham g`oyaviy jihatdan keskin farq qilgan jadid she`riyati XX asr o`zbek adabiyotining yangi yo`nalishda ravnaq topishiga tamal toshini qo`ydi. O`zbek xalqining asr boshlarida nodonlik va jaholat muhitida yashaganligi, ijtimoiy hayot, fan, madaniyat va texnika sohalaridagi o`zgarishlarga loqaydligi, kundalik maishiy muammolar girdobida qolib, ma`naviy jihatdan nochor bir ahvolga tushganligi faqat jadid publitsistikasininggina emas, balki she`riyatning ham g`oyaviy yo`nalishini belgilab berdi. Jadidlar o`z she`rlari bilan xalqning basharasiga ko`zgu tutishga, bu ko`zguda uning g`arib va qashshoq hayotini, ruhsiz holati va badbin kayfiyatini aks ettirishga intildilar.

Xullas, jadid yozuvchilari adabiyotning qariyb barcha tur va janrlarida Milliy uyg`onish davri g`oyalarini xalq ommasi ongiga quyishda qizg`in ishtirok etdilar. Jadid yozuvchilari tufayli o`zbek adabiyotining xalq hayoti bilan aloqasi mislsiz darajada mustahkamlandi, g`oyaviy va estetik ta`sir kuchi oshdi. Jadid adabiyoti xalq ommasining barcha qatlamlariga g`oyaviy ta`sir o`tkazish maqsadini o`z oldiga qo`ygani uchun ham mumtoz adabiyotga xos murakkab obrazlar tizmasiga asoslangan tantanavor-kitobiy tilni isloh qilib soddalashtirdi va jonli xalq tiliga yaqinlashtirdi. eng muhimi, bu adabiyot g`aflat og`ushida yotgan, baxtli va farovon turmush, erk va musatqillik haqidagi orzu-o`ylari ikkiyoqlama zulm sharoitidaso`ngan xalq ommasining ko`zini ochib, uni shahdam qadamlar bilan olg`a borayotgan XX asr bilan, yangi dunyo bilan, ma`rifat va mustaqillik g`oyalari bilan tanishtirdi.

Jadid adabiyoti va uning namoyandalari sho`ro mafkurasi hukmronlik qilgan davrlarda qirg`in-qatag`on etilib, o`rganilmay kelindi. Shuning oqibatida XX asr boshlarida matbuot va adabiyot olamida fidoyilarcha mehnat qilgan kishilarning xalq va vatan oldidagi xizmatlari qadrlanmay, aksincha, tuhmat va malomat toshlari ostida qoldi. Holbuki, jadid adabiyoti g`aflat uyqusida yotgan xalqni

uyg`otib, uni yangi hayot uchun kurashga tayyorladi. Agar o`zbek xalqi sho`ro hokimiyati yillarida ijtimoiy hayotda faol qatnashgan bo`lsa, bu avvalo, jadid adabiyotining-uni mudroq holatdan uyg`otgan ijodiy kuchlarning xizmatidir.

Jadid adabiyoti namoyandalari oktabrdan keyin ham muayyan vaqtga qadar ijod qilishda davom etdilar. Agar ularning bir qismi 1929-1930-yillari mahv qilingan bo`lsa, qolganlari 1937-yilga qadar badiiy ijod bilan shug`ullanish imkoniga ega bo`ldi. Shunisi ahamiyatliki, ular oktabrdan keyin ham jadid adabiyoti g`oyalarini xalqqa yetkazish ishiga sodiq qoldilar. Shuning uchun ham ayrim adabiyotshunoslar jadid adabiyotining faoliyat chegarasini 1929-1930-yillar bilan belgilaydilar.

Jadid publitsistikasi badiiy adabiyotga juda katta o`rin berdi. Bu borada matbuot o`zbek milliy adabiyotining rivojlanishi, ommaviy tus olishi, xalq o`rtasida keng tarqalishi uchun katta faollik ko`rsatdi. Shuningdek, badiiy adabiyotning ijtimoiy rolini oshirdi. Adabiyotning Turkiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida katta rol o`ynashi mumkin va lozimligini isbotladi. Vaqtli matbuot o`zining ichki xususiyatlaridan kelib chiqib badiiy adabiyotning hajman qisqa, lekin mazmunan teran bo`lishiga o`rgatdi. Qisqasi, jadidlar publitsistikasi o`zbek adabiyotining kurashchanlik, jangovarlik rolini oshirdi. Shuning uchun ham 1905-1917-yillar o`zbek vaqtli matbuotida bosilgan adabiy asarlar hajman juda kichkina, qisqa bo`lsa-da, o`sha bo`ronli davrning kechiktirib bo`lmas dolzarb muammolarini ko`tarib chiqqanligini ko`ramiz²².

Jadid publitsistikasining rivojini yana shu fakt bilan tasdiqlash mumkinki, inqilobdan avval unda ko`tarilgan masalalar faqat millatning ichki hayoti bilangina chegaralanib qolgandi, endi esa tematika kengayadi, mazmun chuqurlashadi, mualliflar dadillik bilan xalqaro siyosiy hayot hodisalariga ham murojaat qila boshlaydilar.

Jadidlar publitsistikasi ta`sirida badiiy ijod vakillari o`z davrining dolzarb muammolarini qalamga olishga va mehnatkash xalq manfaatlari nuqtai nazaridan

²² Жалолов А., Ўзганбоев Х. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг ўрни. –Т., Фан, 1993, 114-115 бетлар.

turib yoritishga intildilar. Publitsistika ruhiyati davr va sharoit talablaridan kelib chiqib badiiy adabiyotga tashviqot va jangovarlik baxsh etdi.

E'tiborli jihati, jadidlar publitsistikasining ta'siri ostida o'zbek adabiyotidagi ishqiy mavzu o'rnini ijtimoiy mavzu egalladi. O'zbek adabiyotining xalqchil adabiyot darajasiga ko'tarilishida ham jadidlarning harakatlari va matbuotning o'zni kattaligini qo'rqmay ayta olamiz. Matbuot adabiyotga ijtimoiylik kasb etdi, uni xalqqa juda ham yaqinlashtirdi, badiiy tilni soddalashtirdi.

1905-1917-yillar jadidlar matbuoti tinmay shoir va yozuvchilarni "zamonga muvofiq asarlar yozish"ga da'vat qilib badiiy adabiyotni Turkiston hayotiga, xalq kundalik turmushiga yanada yaqinlashtirdi.

Jumladan, jadidlar o'z maqolalari orqali adabiyotga, san'atga katta e'tibor qaratdi. Adabiyot haqida bir qator publitsistik maqolalar e'lon qilindi. Matbuot sahifalarida davr adabiyotining qanday bo'lishi, qanday g'oyalarni ilgari surishi, qanday masalalarni ko'tarib chiqishi kerakligi haqida bahslar ochildi. Davr etuk ijodkorlarining badiiy asarlarini o'z sahifalarida chop etib bordi.

Xususan, o'sha davrning xalq e'tiboriga tushgan oynomasi – "Oyina" o'z atrofiga etuk ijodkorlarni, pedagoglarni, jamoat arboblarni jamlay oldi. Uning atrofiga Abdurauf Fitrat, Siddiqiy-Ajziy, Mahmud Tarziy, Kamiy, Sayidahmad Vasliy, Hoji Mu'in, Said Rizo Alizoda, Rojiiy, Akobir Mansuriy, Qozizoda, Tavallo, Shavkat kabi shoir va yozuvchilar, dramaturglar yig'ilgan edilar. Aslida jadidlar publitsistikasining adabiyotga ta'sirini oydinlashtirish uchun bu davrda nashr etilgan o'zbek vaqtli matbuoti organlarini alohida-alohida tadqiq etish kerak. Ana shundagina o'zbek ma'rifatparvar-demokratik adabiyoti, shu o'rinda publitsistikasi to'liq tahlil etilgan bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan nashrlaridan hisoblangan "Taraqqiy", "Samarqand", "Sadoyi Turkiston" kunnomalari va "Oyina" oynomasining qisqa mazmunini yoritish orqali jadidlar publitsistikasi, uning xalqning maishiy va madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotida tutgan o'zni va eng asosiysi, o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining rivojlanishi, shakllanishiga qo'shgan ulkan hissasini, o'zbek milliy publitsistika janriga asos solganligini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Jumladan, “Taraqqiy”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston” kunnomalari o‘zlarining jarchilik faoliyatlari davomida juda ham og‘ir, murakkab, ammo sharaflı yo‘lnı bosib o‘tib, o‘zbek ma‘rifatparvar-demokratik adabiyotining tug‘ilishi, rivojlanishi va shakllanishi uchun juda katta rol o‘ynaganligini ta‘kidlash joiz.

“Taraqqiy” adabiyotga, xususan, badiiy adabiyotga alohida ahamiyat berdi, unga umid ko‘zi bilan boqdi, shu bilan birga o‘zi ham yangi tug‘ilib kelayotgan o‘zbek ma‘rifatparvar-demokratik adabiyotining shakllanishiga yaqindan yordam berdi, ta‘sir qildi. Taraqqiyparvar ijodkorlarga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatdi, jamiyatning butun razolat va adolatsizliklarini “yoshurmay fosh qilmoq” kerakligini tinmay uqtirib bordi. Shuning uchun ham kunnoma o‘zining “Qalamkash” imzosi ostida bosilgan “Ul-bul narsalar” nomli adabiy-publitsistik maqolasida jamiyat inkishofiga, mehnatkash xalqni baxtli hayotga, ma‘rifatga, madaniyatga da‘vat qilmaydigan asarlarni yozish bu umrni bekorga sarf qilish bilan barobar deb hisoblaydi. Xalqning “dunyog‘a foydasi o‘lmag‘an ro‘mon, hikoyalarni” o‘qib o‘tirishga vaqti yo‘qligini ham alohia ta‘kidlaydi:

“... Otaullo Boyazidav... hanuz ro‘mon yozmoqda, bir tuzuk fikrlik qahramon ila muttasib Arslonni kurashtirmakdadur... Lekin Boyazidov og‘oyi shu ham xotiringdan chiqmasunki, hozirda andog‘ ro‘monlarning zarur vaqti o‘tdi. Izzitlik qorilarimiz (kitobxonlar demoqchi) andog‘ ne dunyog‘a foydasi o‘lmag‘on ro‘mon. Hikoyalarni o‘qub, umrlarini bekor o‘tqazmoqqa rizolari qolmadi”²³.

“Taraqqiy” badiiy adabiyotning ijtimoiy mavqeiga yuqori baho berdi. Shoir va yozuvchilarni “ul-bul narsalar”ni emas, balki davr bilan barobar qadam tashlab dolzarb masalalarni o‘z asarlariga mavzu qilib olishga chaqirdi.

1913-yilning aprel’ oyida Samarqandda yirik olim, shoir va yozuvchi, jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiynıng sa‘yi harakati bilan muharrirligida chiqarilayotgan “Samarqand” kunnomasining shiori gazetaning ma‘no va mazmuni, undagi mavzular ko‘lamini to‘liq belgilab berar edi:

²³ “Тараққий”. 1906, 3-сон.

“Milliy, turkiy va forsiy oʻrta shevada ilm, fan, adabiyot, tijorat, hunar va ziroatdan. Rossiya ahvoli va madaniyati va xorijiy mamalakatlari holidan va olami islom tirikligidan yozuvchi, maʼrifatparvar, musavvar jaridadur”. Haqiqatan ham “Samarqand” oʻzining 44-soni davomida yuqorida keltirilgan shiorga toʻla amal qilish bilan birga inson haq-huquqlari borasida, tenglik, birodarlik haqida ona Vatan, muqaddas tuproq, xalq, unga sadoqat haqida ham bir qator publitsistik maqolalar, ajoyib hikoyalar, ijtimoiy ruh bilan yoʻgʻrilgan sheʼrlar nashr etib, oʻzining targʻibotchilik – jarchilik, rahbarlik burchini ortigʻi bilan bajara oldi. Kunnoma dastlabki nashrlaridan boshlab oʻzining shioriga toʻla amal qilgan holda ilmdan, badiiyatdan, adabiyotdan bebahra qolgan oʻzbek xalqini maʼrifatga, adabiyotga chorladi. Bu vaqtli matbuot nashri oʻzbek adabiyotining taraqqiyoti uchun astoydil harakat qildi. Kunnoma oʻsha davrda yozilayotgan, boshqa tillardan oʻzbek tiliga tarjima qilinayotgan, nashr etilayotgan badiiy asarlar haqida eʼlonlar, qimmatli materiallar ilova qilgan. Bu eʼlonlarda nashr etilayotgan badiiy asarlarning gʻoyaviy mazmuni, sharhi, ahamiyati haqida qimmatli maʼlumotlar berib borilgan.

“Samarqand” bilan tenglasha oladigan kunnomalardan biri boʻlgan “Sadoyi Turkiston” ham oʻzining maslagi nuqtai nazaridan shu davrgacha chop etilgan vaqtli matbuot nashrlaridan ajralib turadi. “Sadoyi Turkiston” ijtimoiy-siyosiy, maishiy-iqtisodiy, fanniy kunnoma boʻlishi bilan birga adabiyotga, sanʼatga, madaniyatga ham alohida ahamiyat berdi. Oʻzbek milliy adabiyotining tugʻilishi va shakllanishi uchun fidoyilik koʻrsatdi.

“Sadoyi Turkiston” kunnomasining muharriri Ubaydulaxoʻja Asadullaxoʻjaev, oʻzi advokat boʻlishiga qaramay, oʻzbek adabiyoti va sanʼatining rivoji uchun astoydil harakat qildi, hatto bu borada oʻz moddiy jamgʻarmalarini ham ayamadi. U “Sadoyi Turkiston”ning adabiyot va sanʼatga doir kunnoma boʻlishi uchun harakat qilib oʻzining atrofiga Munavvarqori Rashidxonov, Abdulla Avloniy, Tavallo, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Holid Said, Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon, Fitrat, Moʻminjon Muhammadjonov, Sayidahmad Vasliy, Abdulla Ergʻoziev, Hoji Muʼin, N.Aziziy, Rauf Muzaffarzoda, Nozimaxonim, Siddiqiy,

No'shiron Yovushev, Lutfulla Olimiy, Fuzail Jonboev, SH.Rahimiy kabi yirik ijodkorlarni, jamoat arboblarni, pedagog va noshirlarni jamlab katta faollik ko'rsata oldi.

1905-1917-yillar vaqtli matbuoti, jumladan, "Sadoi Turkiston" o'zbek milliy adabiyotining qanday bo'lishi kerakligini juda aniq tasavvur qildi. Shuning uchun ham "adabiyotning vazifasi mamlakatning ixtiyojini kuzatmak va maydong'a chiqorib qo'ymak, eng muhim mavzularni aholi nazariga arz etmak"²⁴ ekanligini juda to'g'ri ko'rsatib berdi. Vaqtli matbuot badiiy adabiyot namoyandalarining "mumkin qadar fikrsiz xalq ichiga aralashib muloyimona nasihatlarida bo'lub va millatning eng qorong'u burchaklariga ketub nurli chirog' bo'lib millatning jarohatli uzvlariga davo solish"ga chaqirdi.

Darhaqiqat, matbuot va adabiyotning bunday chaqiriqlariga Hamza, Abdulla Qodiriy, S.Ayniy, Rauf Muzaffarzoda, Cho'lpon, Mirmuhsin kabi ijodkorlar juda tez fursatda qo'shib o'zlarining xalqchil asarlari bilan "davr va tuzum dardlaridan jarohatlangan millatning uzvlariga davo" – malham bo'lishga harakat qildilar. Xamzaning "Yangi saodat yoki milliy ro'mon", R.Muzaffarzodaning "Ong umidlari", "Temir g'ildiraklar ustidagi tushlar", S.Ayniyning "Xonadoni xushbaxt", Fitratning "Sayyohi hindi", Abdulhamid Cho'lponning "Do'xtur Muhammadyor", A.Qodiriyning "Juvonboz", "Uloqda" kabi asarlariga ana shunday yuksak g'oyalar yuklatilgan edi.

"Sadoi Turkiston" "jaholat qorong'usi ichida yolg'iz qolgan xalqni milliy matbuot va adabiyot bilan tanishtirmak" ham shoir va yozuvchilarning muqaddas vazifalari ekanligini alohida uqtiradi. Shuning o'zidan ham bilinadiki, 1905-1917 yillar davomida yangilatdan tug'ilib kelayotgan o'zbek adabiyoti o'zbek vaqtli matbuoti bilan mustahkam aloqada bo'lib Turkistonning rivoji uchun, xalqning kelgusi yaxshi hayoti uchun barobar kurash olib bordi. O'zbek milliy matbuoti shu davr adabiyotining Turkiston va mehnatkash xalq oldidagi mas'uliyatini juda to'g'ri his etdi va to'g'ri ko'rsatdi. O'zbek adabiyotining kelgusi taqdiri qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatishga intilgan adabiy materiallarni o'z sahifalarida chop

²⁴ "Садои Туркистон", 1914, 65-сон.

etib borish bilan birga mehnatkash xalqning iqtisodiy va maishiy hayotini yaxshilashga yordam beradigan badiiy asarlar yozish zarurligi ham alohida uqtirib bordi.

“Sadoi Turkiston” kunnomasi “idoraga maktublar” rubrikasida shunday satrlarni yozadi: “...hali bizga ko‘p teatr va ro‘mon kitoblari yozmoq kerakdurki, bu qarz bir hovuch ziyoli yoshlarimiz va ahli qalamimiz ustilariga tushadur”²⁵.

Hatto, kunnomada ana shu yozilajak “teatr va ro‘mon kitoblariga mavzu mehnatkash xalq orasidan olinishi, xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi, Turkistonning iqtisodiy, madaniy inkishofiga yordam berishi, joriy yaramas, zararli urf-odatlarini yo‘qotishi kerakligi ham”²⁶ alohida ta’kidlanadi. “Sadoi Turkiston” adabiyot vakillarining biror badiiy asar yozishdan avval mavzu va materiallarni puxta o‘rganishlari zarurligini, ularning xalq orasida yurib, yozilajak asarlariga materiallarni to‘plashlari, xalqning jonli so‘zlashuv tilini, urf-odatlarini mukammal o‘rganishlari kerakligini uqtiradi.

“Muhtaram qalam ahllari milliy maishatni yomon deb bezmastdan zohiran bo‘lsa ham to‘ylarda, choyxonalarda, bachchabozlar majlisida, bazmlarda va shunga o‘xshash millatning eng tanqid qilinaturg‘on o‘rinlarida birga aralashib yurmakliklari kerakdurki, toki komil o‘shal odatlarni kitob sahifalarida chiroylik qilib yozgunday bo‘lsunlar”²⁷.

Kunnoma adabiy asarlar uchun eng asosiy materiallar xalq orasidan olinishini juda to‘g‘ri ko‘rsatib beradi: “...kitob betlariga ko‘churub yozmoqqa materiallarning eng asllari xalq orasidan olinadur”. “Sadoi Turkiston” o‘zbek shoir va yozuvchilariga qimmatli maslahatlar berishi bilan birga ularning Ovruponing mashhur adiblarining asarlar yozish tajribalaridan o‘rganishga chaqiradi: “Ovruponing katta-kichik muharrirlari o‘shal o‘zlarining yaxshi. Yomon odatlari

²⁵ “Садои Туркистон”, 1914, 68-сон.

²⁶ “Садои Туркистон”, 1914, 68-сон.

²⁷ Ўша жойда.

orasinda yurubdurlar. So'ngra qo'llarig'a qalam olub yaxshisini yaxshi, yomonini yomon ko'rsatub yozubdurlar"²⁸.

Kunnoma bu satrlar orqali o'zbek adabiyotining ilg'or Ovrupo adabiyoti yo'lidan borishga, uning ulkan tajribalaridan o'rganishga, qisqasi Ovrupo tipidagi badiiy asarlar yaratishga undamoqda.

O'zbek shoir va yozuvchilarining xalq hayoti bilan yaqindan tanishishlari natijasida bir qator xalqchil asarlar yaratildi. Rauf Muzaffarzodaning "Ong umidlari", Mo'minjon Muhammadjonovning "Eski maktab turmushidan", S.Ayniyning "Xonadoni xushbaxt", Fitratning "Sayyohi hindi", Abdulhamid Cho'lponning "Do'xtur Muhammadyor", Mirmuhsinning "Befarzand Ochildiboy", Nozimaxonimning "Afsus", Tavalloning "Bayoz", So'fizodaning "Adabiyot" kabi asarlarida o'zbek xalqining o'ta og'ir hayot qismati, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, davr dardlari, tuzum adolatsizliklari o'zining yorqin aksini topgan edi.

"Sadoi Turkiston" o'zbek milliy adabiyotining taraqqiyoti uchun harakat qilish bilan birga "milliy til, milliy adabiyot va matbuot havaskorlari yoshlardan juda oz"ligini juda afsus bilan qayd etadi²⁹.

Kunnoma "chopon va sallaga g'arq bo'lg'on islom dunyosida" milliy adabiyotni, matbuotni qanchalik og'ir bo'lmasin rivojlantirish kerakligini, chunki uning keng xalq ommasining kelgusi hayot taqdirini hal qilishda katta ahamiyat kasb etishi mumkinligini juda to'g'ri aytib o'tadi.

"Sadoi Turkiston" badiiy adabiyot mavzuini xalqdan olar ekan, demak uning tili ham ana shu keng ommaga tushunarli hamda ularning saviyasiga mos bo'lishi kerakligini ham alohida uqtirib o'tadi: "Bir millat ichinda har turli sinf, xalq bo'ladur, ... aholining matbuotdan va gaplardan o'zlari orzu qilgan qadar foydalanmakliklari uchun albatta bayon qilingan fikrlar quvvai idroklaridan yuqori daraja bo'lmasliklari shartdir"³⁰.

1905-1917-yillar jadid matbuoti o'z muharririyatiga kelgan har bir materialni sinchiklab tekshirib, saralar ekan, ularning Turkiston uchun, keng xalq ommasi

²⁸ Ўша жойда.

²⁹ "Садои Туркистон". 1914, 41-сон.

³⁰ "Садои Туркистон". 1914, 43-сон.

uchun foydali tomonlarini nazarda tutish bilan birga, ularning tili va uslubiga, mazmuniga va murakkab-soddaligiga ham, ko'tarib chiqqan va ilgari surgan masalalariga ham katta ahamiyat berdi.

Jadid matbuoti yangi tug'ilib kelayotgan o'zbek milliy adabiyoti haqida fikr yuritar ekan, yozilayotgan she'rlarning til va imlosi og'ir, g'aliz, murakkab ekanligini, ularni o'qigan "o'quvchilarning nozik hislari buzilayotganligi"ni bularning hammasi "adabiyotning qiymatiga halal berayotganligi"ni juda haqqoniy ravishda ko'rsatib beradi. Shu bilan birga matbuot o'zbek ziyolilari oldiga "imlo va kitobat usullarin ko'rsatadigan majmualar yaratish"ni, "ilmiy va adabiy tadbirlar" qo'llash masalasini ham qo'yadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jadid publitsistikasi, matbuotida adabiyotga siyosiy nuqtai nazardan yondashdi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Chunki matbuot orqali adabiyotning g'oyaviy qurol ekanligi birinchsi bo'lib tan olindi. Ushbu davr jadid mutbuoti badiiy adabiyotga o'z sahifalaridan o'rin berar ekan, u to'g'ri kelgan, pala-partish asarlarni bosmadi.

"Sadoi Turkiston" kunnomasini tahlil qilish davomida uning salmoqli qismini badiiy adabiyot tashkil etganligining guvohi bo'ldik. Chunki jadid matbuoti adabiyotni jamiyatning yangilanishiga ta'sir qiluvchi g'oyaviy bir kuch, g'oyaviy qurol sifatida tasavvur qildi.

XULOSA

Mazkur bitiruv-malakaviy ishida jadid publitsistikasining yuzaga kelish tarixi, rivojlanishi, janrlar xilma-xilligi, ayni shu jarayonda shakllangan jadid adabiyotining o'ziga xos jihatlari atroflicha tadqiq etildi. Jadid publitsistikasida matbuotning o'rni hamda ahamiyati, jadidlarning sa'y-harakatlari, ijodiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan bebaho adabiy merosni o'rganish, tahlil qilish hamda tadqiq etish orqali quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga keldik:

1. Jadid publitsistikasi XX asr boshidagi Turkistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi yangilanishning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi va millatning uyg'onishida muhim rol o'ynadi.

2. Jadidlar matbuot vositasida xalqni qardosh, tildosh, millatdosh, dindosh turk olamiga olib chiqdi. Ular bilan o'z taqdirini bir ko'rdi, o'tmishning achchiq tajribalaridan saboq chiqarishga, kelajak uchun bir jon, bir tan bo'lib, kurashish zaruriyatiga ishonch hosil qildi. "Tarjimon", "Vaqt", "Sho'ro", "Ong" kabi Kavkaz va Volga bo'yida chiqib turgan, chor hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashda katta tajribaga ega bo'lgan gazeta-jurnallar Turkiston jadid matbuotining oyoqqa turib olishida hamkor va hamdast bo'ldilar.

3. O'zbek jadid matbuoti yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiy topishida oltin beshik vazifasini o'tadi. Behbudiydan Cho'lpongacha bo'lgan jadid adabiyotining barcha vakillari fikrlarini ham, qalamlarini ham mana shu ilk gazeta-jurnallarimizda charxladilar.

4. Jadid publisistikasining eng muhim xizmati millatni uyg'otish va uni mustaqillik uchun tayyorlash edi. Matbuot buni sharaf bilan bajardi. Bugina emas, zamon aylanib, totalitar tuzumga qaytganida ham uning yonida turdi.

5. Jadid matbuotining maydonga kelishida yoshlarning xizmati katta bo'ldi. O'lkada chuqur tomir otgan bosh-boshdoqlik, urug'-aymoqchilik, isrof, xurofot, mutaassiblik kabi chirkin odatlarga barham berish, keng xalqni milliy birlik, mustaqillik, ma'rifat va adolat bayrog'i ostida birlashtirish taraqqiyparvar jadid yoshlari intilishlarining maqsad-mazmunini tashkil qildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2010.
3. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.; Ўзбекистон, 2009.
4. Ўзбек миллий энциклопедияси, 12-том.
5. Қосимов Б.Миллий уйғониш. Т.: Маънавият, 2002.
6. Қосимов Б. Адабиёт ва инқилобий ҳаракат. “Шарқ юлдузи” ж.. 1984 й., 1-сон.
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000.
8. Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи. Нашрга тайёрловчи Ш.Ризаев. Китобда: Миллий уйғониш. – Т., “Университет”, 1993 й.
9. Зиё Саид. Танланган асарлар. – Т.: 1974.
10. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2005.
- 11.Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Т.: МА`навият, 1999.
- 12.Абдулла Тўқай. Асарлар, 4 томлик, 3-том. Қозон, 1976.
- 13.Норматов У. Қодирий мўжизаси. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
- 14.Жалолов А., Ўзганбоев Ҳ. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг ўрни. – Т.: Фан, 1993.
- 15.Саидов Ҳ. Маърифат либосидаги озодлик. – Т.: Шарқ, 2000.
- 16.И.Мирзаев. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. –Т.: Фан, 1977.
- 17.Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий. – Т.: Фан, 2006.
18. Абдулла Қодирий. Ғирвонлик Маллавой. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
- 19.Абдулла Қодирий. Диёри Бакр. – Т.: Янги аср авлоди, 2007.
- 20.Тоғаев О. Публицистика жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1976.
- 21.Долимов У. Туркистонда жаҳид мактаблари. – Т.: Университет, 2006.
- 22.Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

23. Жалолов А. XIX аср охири ва XX аср бошларида ўзбек адабиёти. – Т.: 1991.
24. Саидов О. Ҳажв ва ҳазил фан этиди. 1974.
25. М. Колсов. Писател в газете.
26. Қурбанова С. Б. Ёзувчи публицистикасининг ривожланиш хусусиятлари автореферати. – Т.: 2011.
27. Чўлпон. Туркистонда матбуот. “Жамият ва бошқарув” ж., 1998, 2-сон. Нашрга тайёрловчи Т. Тоғаев.
28. “Тараққий” газетаси. 1906, 1-3-13-сонлари.
29. “Таржимон” г., 1906 й., 22 сентябрь, 107-сон.
30. “Садои Туркистон” г., 1914, 41-43-65-сонлари.
31. www.jadid.uz
32. <http://jadid.my1.ru>
33. <https://uz.wikipedia.org>
34. <http://books.google.co.uz/books>
35. <http://www.ziynet.uz>
36. <http://www.google.co.uz/#q=jadidchilik+harakatlari>
37. www.e-adabiyot.uz